

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIMI VAZIRLIGI**

ZAXIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

Qo'lyozma huquqida

AHMADALIEV MAHAMADJON ABDULLAEVICH

**“AVESTO»DA TA'LIMIY - AXLOQIY, DAVLATCHILIK
G'OYALARINING AKS ETISHI**

**5111600- Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi
bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

ILMIY RAHBAR: katta o'qituvchi SH.MAXAMADYUNUSOV

ANDIJON – 2016 y.

MUNDARIJA

Kirish.....	3-6
I bob. “Avesto”da davlatchilik g‘oyalarining aks etishi.....	3-33
1.1. <i>Ilk davlatchilikning paydo bo‘lishida zardushiylik dinining ahamiyati</i>	<i>7-24</i>
1.2. <i>“Avesto”da qo‘llangan ilk davlatchilik atamalari</i>	<i>25-33</i>
II bob. “Avesto”dagi ta’limiy-axloqiy qarashlar.....	34-62
2.1. <i>“Avesto”da ta’limiy –pedagogik g‘oyalarning aks etishi.....</i>	<i>34-50</i>
2.2. <i>“Avesto”dagi axloqiylik va komillikka oid pandnomalar xususida</i>	<i>51-62</i>
Xulosa.....	63-66
Foydalanilgan adabiyotlar.....	67-68

Kirish

O'zbekistonda mustaqillikning qo'lga kiritilishi munosabati bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda tubdan o'zgarishlar yuz berdi. Xalqimizning yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga xohishi tobora ortib bormoqda. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi. Shu tufayli Prezident I. A. Karimovning «O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoniga asosan, tariximizni o'rganishning nazariy, ilmiy-metodologik asoslari, maqsad va vazifalari tubdan yangilandi¹. Sobiq sho'rolar davrida tarixiy taraqqiyotga kommunistik mafkura ruhida yondashuvlar tufayli buzilgan va unutilgan tarixiy qadriyatlar qayta tiklanmoqda, ijtimoiy-gumanitar fanlardagi mavhum ilmiy qarashlarga aniqliklar va tuzatishlar kiritila boshlandi. O'zbek xalqini birlashtiruvchi, jamiyatni axloqiy va mafkuraviy jipslashtiruvchi kuch - milliy g'oyani mustahkamlash yo'lida tarixiy jarayonlarni obektiv va tarixiylik nuqtai-nazaridan xolisona yoritib berish tarix fani oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qoldi.

Darxaqiqat, tarix fanida va manaviy sohada ilmiy yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Shulardan biri - zardushtiylik va uning muqaddas kitobi "«Avesto»" bo'lib, uning yaratilish tarixi va tarixiy ildizlari, moddiy madaniyatda qanchalar aks topishi, shuningdek, zardushtiylik g'oyalarini qadimgi Eron va Turon xalqlari ilk davlatchilik tarixida tutgan o'rini o'rganish bugungi kunda juda muhimdir.

Bugungi imkoniyatlar "«Avesto»" g'oyalarining O'rta Osiyo xalqlari ilk davlatchilik tarixida tutgan o'rini, unda aks etgan axloqiy-ta'limiy qarashlarni chuqur tadqiq etishga sharoit yaratadi.

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda mustaqillik sharofati tufayli ajdodlarimizning qadim madaniy merosini, ma'naviy qadriyatlarini tadqiq va targ'ib qilishga keng imkoniyat tug'ildi. Shunday qadriyat namunalaridan biri "Avesto"dir. U nafaqat diniy, balki noyob tarixiy — pedagogik, ta'limiy va qomusiy yodgorlik hisoblanadi. So'nggi o'n yil davomida buyuk donishmandlik majmuasi bo'lmish bu asarni

¹ Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Т.: Шарк, 1998. - Б. 3.

o'rganishga qiziqish ayniqsa kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: "Avesto" bilan yaqindan tanishar ekanmiz, yana bir karra shunga iqror bo'lamizki, bu mangu kitobda ifoda etilgan buyuk qarashlar, falsafiy hikmatlar o'zining hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratda qoldiradi.

"Avesto"ning tub ma'no — mohiyatini belgilab beradigan "ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" degan tamoyilda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman"² Darhaqiqat, "Avesto" — hikmat va saboqlar xazinasidir. Bu asar jahon sivilizatsiyasi va umumbashariy ma'naviyat taraqqiyotiga beqiyos katta ta'sir ko'rsatdi, insonning har jihatdan barkamol va ozod bo'lishini madx etdi. Miloddan avvalgi 1 ming yillik o'rtalaridan I ming yillik boshlarigacha o'lkamizda yuzaga kelgan "Avesto" ko'p qirrali asar bo'lib, u ilk davlatchilik munosabatlari, ijtimoiy — iqtisodiy, siyosiy — huquqiy, ma'rifiy — axloqiy qarashlarning ibtidosi va takomili haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Demokratik huquqiy jamiyatni qaror toptirish jarayoni davom etayotgan bugungi sharoitda yangicha ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish madaniy meros, jumladan, "Avesto" saboqlaridan keng foydalanishni taqozo etmoqda. Zero, jamiyat a'zolari, xususan, yoshlarning har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishishlarida ajdodlar an'anasi va o'tmish qadriyatlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. "Avesto"ga qiziqish o'zining uzoq tarixiga ega. U dastlab kitob shaklida tartib berilishi, so'ngra parokanda qismlarining qayta tiklanib, tugal holga keltirilishi (VI asr o'rtalarida) hamda XVII asrdan hozirgacha tarjima va tadqiq etilishi kabi jarayonlarni boshdan kechirdi. Zardushtiylik ta'limoti, uning payg'ambari Zardusht hamda "Avesto" haqidagi qator qimmatli ma'lumotlar Tabariy, Beruniy va boshqa Sharq allomalarining ilmiy — tarixiy hamda badiiy asarlarida uchraydi.

Keyingi ikki asrda avestoshunoslik sohasidagi tadqiqotlar doirasi yanada kengayib, Zardushtiylik va "Avesto"ni o'rganishga bag'ishlangan maqolalar, risolalar yuzaga kela boshladi.

O'zbekistonda "Avesto"ga bag'ishlangan maqolalar o'tgan asrning 50 — yillarida

² Каримов И.А. ... "Авесто"нинг 2700 йиллигига бағишлаб барпо этилган ёдгорлик мажмуининг очилиш маросимида сўзлаган нутқи. "Халқ сўзи" 2001. 6 ноябр. №226.

yaratila boshlandi. Filologiya fanlari doktori, professor N.M.Mallaevning "O'zbek adabiyoti tarixi" darsliklarida hamda "Alisher Navoiy va xalq ijodi" monografiyasida "Avesto" haqida ma'lumot va undagi ayrim miflar tahlili berilgan.

"Avesto" ni o'rganishning yangi bosqichi mustaqillik davrida boshlandi. Bu davrda, bir tomondan, "Avesto"ning rus va fors tillaridan o'zbek tiliga tarjimalari vujudga kela boshladi. Ikkinchi tomondan, uni turli yo'nalishlarda tadqiq va targ'ib qilishga jadal kirishildi. Bu sohada H.Homidov, M.Isxoqov, S.Xasanov, H.Boboev, T.Maxmudov va boshqa olimlarning risola va maqolalari alohida o'rin tutadi. Boshqacha aytganda, O'zbekistonda "Avesto", asosan, tarixiy va filologik nuqtai nazardan tadqiq qilingan. "Avesto" ning deyarli barcha qismlari uchun xarakterli bo'lgan ta'lim —tarbiya, odob — axloq, umuman, insonning ma'naviy kamoloti masalalari maxsus o'rganilmagan. Bu sohada keyingi davrlardagina ayrim nashrlarda Zardushtning tarbiyaga oid pandnomalaridan parchalar uchraydi, xolos. Ayrim maqolalarda «Avesto»da keltirilgan davlatchilikka oid atamalar haqida ham qisqacha to'xtalib o'tilgan.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, "Avesto"dagi ta'limiy — axloqiy qarashlar va davlatchilikka oid fikrlarning aksariyat qismi bugungi kunda ham alohida pedagogik qimmatga ega.

Ishning maqsadi hamda vazifalari: "Avesto"dagi ta'limiy — axloqiy qarashlarni aniqlash va davlatchilikka oid atamalarni sharhlash orqali davlatchilik g'oyalarni belgilash. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. "Avesto" va uning yaratilish davri, mazmun-mohiyati haqidagi mavjud manbalarni qiyosiy o'rganish;
2. "Avesto"da keltirilgan ta'limiy –pedagogik g'oyalarni aniqlash;
3. "Avesto"dagi axloqiylik va komillikka oid pandnomalarni ajratish va bugungi kun nuqtai nazaridan sharhlash;
4. Ilk davlatchilikning paydo bo'lishida zardushtiylik dinining ahamiyati va o'rnini ko'rsatish;
5. "Avesto"da qo'llangan ilk davlatchilik atamalarini aniqlash va sharhlash

Tadqiqot obyekti va predmeti. "Avesto"da aks etgan ta'limiy-axloqiy qarashlar va davlatchilikka oid g'oyalar ishimizning asosiy obyekti sanaladi.

Ishimizning predmetini esa bizgacha yetib kelgan «Avesto»ning Yasht, Vispart, Vendidot, Yasna nomlari bilan ma'lum bo'lgan bo'laklari hamda "Avesto"ning sharhiga bag'ishlangan mavjud manbalar tashkil etadi.

Ishning ilmiy-amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalaridan yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalash jarayonida, tarix, ma'naviyat asoslari, huquqshunoslik, pedagogika fanlarini o'qitishda foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi: Mazkur BMI ishning kirish, ikki bob, to'rt fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 68 sahifani tashkil etadi.

I BOB. “AVESTO”DA DAVLATCHILIK G‘OYALARINING AKS ETISHI

1.1. Ilk davlatchilikning paydo bo‘lishida zardushtiylik dinining ahamiyati

Zardushtiylik dini eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda O‘rta Osiyo va Qadimiy Eronda yuzaga kelgan dindir. Bu din Zaratushtra, Zardust, Zaroastr nomi bilan bog‘liq. Tadqiqotchilar o‘rtasida Zardushtning tarixda bo‘lgan yoki bo‘lmaganligi borasida turli fikrlar mavjud. Ba’zilar uni tarixiy shaxs deb bilishsa, yana boshqalar uni afsonaviy shaxs deb hisoblaydilar. Manbalarning xabar berishicha, u eramizdan avvalgi, taxminan, 570 -yillarda tug‘ilgan ilohiyotchi, faylasuf, shoirdir. Zardusht Movarounnahrda ko‘pxudolikka asoslangan qadimiy diniy tasavvur va e’tiqodlarni islox qilib, yangi dinga asos soldi.

Zardushtning tug‘ilgan va ilk diniy faoliyatini boshlagan joyi to‘g‘risida ikki fikr mavjud: birinchisi «G‘arb teoriyasi» bo‘lib, unga ko‘ra Midia (hozirgi Eron hududida) Zardushtning vatani va Zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi hisoblanadi. Bu fikr tarafdorlarining dalili - birinchidan zardushtiylikning Qadimiy Eron hududlarida keng tarqalganligi bo‘lsa, ikkinchidan Zardushtiylikning muqaddas kitobi sanalmish «Avesto»ning bizgacha yetib kelgan nusxasi qadimiy eron-pahlaviy tilida yozilganligidir.

Yana bir boshqa fikr «Sharq teoriya»si bo‘lib, bunga ko‘ra Zardusht vatani va Zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi Xorazm hisoblanadi va ko‘pchilik manbashunoslar shu teoriya tarafdoridirlar. Xorazm birinchi bo‘lib Zardushtiylik muqaddas olovi «Atar - xurra» yoqilgan va Axuramazda Zardusht bilan bog‘langan joy hisoblanadi. Zardushtiylikning asosiy manbasi hisoblangan «Avesto»da: «birinchi bor muqaddas olov «Atarxurra» «Eran-vej» (ba’zi manbalarda «Ayrian vedja»)da yoqildi» deyiladi.

«Eran-vej»ning geografik va iqlimiy tavsifi Xorazmnikiga to‘g‘ri keladi.

«Avesto»da Axuramazda tomonidan berilgan «Barokot va najot» sohibi bo‘lgan bir qator mamlakatlari zikr etiladi va ularning eng birinchisi deb, «dunyoda hech narsa uning chiroyiga teng kela olmas Eran-vej», keyin «odamlar

va chorva podalariga mo‘l Sogd (So‘g‘d), «qudratli va muqaddas» Mouru (Marv), «Baland ko‘tarilgan bayroqlar mamlakati» Batxi (Baqtriya) zikr etiladi.

«Avesto»da, shuningdek, Zardusht tug‘ilgan va o‘z faoliyatini boshlagan yurt xaqida xam ma’lumot beriladi. Aytilishicha, «Shunday mamlakatni ko‘p sonli lashkarlarni botir sarkardalar boshqaradilar, baland tog‘lari bor, yaylov va suvlari bilan go‘zal, chorvachilik uchun barcha narsa muxayyo, chuqur, suvga mo‘l ko‘llari bor, keng qirg‘oqli va kema yurar daryolari o‘z to‘lqinlarini Iskata (Skifiya), Pauruta, Mouru (Marv), Xareva (Ariya) Bava (So‘g‘d hududida), Xivayrizima (Xorazm) mamlakatlari tomon eltuvchi daryolari bor».

Shubhasiz, «Keng qirg‘oqli, kema yurar daryolar» bu Amu va Sirdaryo bo‘lib, «Avesto» tasvirlagan mazkur shaxarlar O‘rta Osiyo shaxarlarining bu ikki daryo qirg‘oqlarida joylashganlaridir.

Shunga asoslanib, biz Zardushtning vatani, Zardushtiylikning ilk makoni va «Avesto»ning kelib chiqish joyi deb Xorazm, So‘g‘d, Farg‘ona yoki Baqtriyani ayta olamiz.

«Avesto»ning «yasht» qismida bayon etilishicha, Zardushtning vatandoshlari unga ishonmaydilar va uning ta’limotini qabul qilmaydilar. Zardusht vatanni tark etib, ko‘shni davlatga ketadi, u yerning malikasi Xutoasa va Shoh Vishtaspaning xayrixohligiga erishadi, ular Zardusht ta’limotini qabul qiladilar. Natijada qo‘shni davlat bilan urush boshlanib, Vishtaspa g‘alaba qozonadi. Shundan so‘ng bu ta’limot xalqlar o‘rtasida keng tarqala boshlagan.

Shoh Vishtaspa farmoniga binoan Zardushtning 1200 bobdan iborat pandnomasi «Avesto»ning qadimiy qismi «Got»ni yozib shohning otashkadasiga topshirgan.

Zardushtiylik ta’limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo‘lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e’tiqodlarga nisbatan progressiv, monoteistik ta’limotdir. U bexuda qon to‘kuvchi qurbonliklar, harbiy to‘qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o‘troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dexqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanishga da’vat etadi.

Moddiy hayotni yaxshilashga urinishni yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblaydi. Zardushtiylik dinida qo'riq yer ochib uni bog'-u rog'ga aylantirgan odam ilohiyot rahmatiga uchraydi, aksincha, bog'lar, ekinzorlarni, sug'orish inshootlarini buzganlar katta gunohga qoladi. Zardusht o'z ta'limoti bilan insonlarga tinch-totuv yashashni, xalol mehnat qilishni o'rgatmoqchi bo'ladi. U o'z ta'limotini insonlarning bu dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri xam bo'lajak, xar bir inson o'lgandan so'ng o'zining bu dunyodagi qilmishiga yarasha yoki abadiy roxat - *jannatga*, yoki yomon ishlari ko'p bo'lsa na xursandlik va na xafalik ko'rmaydigan arosat joy - *misvongatuga* tushadi, degan g'oyaga asoslantirgan.

Zardushtiylik ta'limotining asosi olam qarama-qarshiliklari kurashi asosida ko'rilgan. Yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ulik, hayot va o'lim o'rtasida abadiy kurash davom etadi. Barcha yaxshiliklarni Axuramazda va barcha yomonliklarni Anxramaynyu yoki Axriman ifodalaydi.

Axuramazda insonlarga ezgu ishlarni bayon etib ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlarni bayon etib ulardan saqalanishni buyuradi.

Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: fikrlar sofliqi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi, har bir zardushtiy kuniga besh marta yuvinib, poklanib, quyoshga qarab uni olqishlab sig'inishi shart bo'lgan.

Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda dunyodagi to'rt unsur - suv, olov, yer va havo ulug'lanadi.

Zardushtiylik dafn marosimi o'ziga xos bo'lib, o'lganlar bir necha past, baland «sukut minoralari» - daxmalarga solinadi, u yerda murdalarning go'shtlarini qushlar yeb, suyaklarini tozalaydi. Go'shtdan tozalangan suyaklar minora o'rtasidagi quduqqa sochib yuboriladi. Bunda «xalol» bilan «xarom»ning bir-biriga yaqinlashmasligiga erishiladi.

Zardushtiylik dini jaxon miqyosida eng qadimgi dinlardan biri hisoblanib, eramizdan avvalgi VII-VI asrlar O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron va kichik Osiyo xalqlarining e'tiqod qiluvchi dinlari hisoblangan.

Eronshohlar davrida Eronda rasmiy davlat diniga aylangan. Biroq bu davrda uni ruhoniylar, zodagon hokimlar o'z manfaatlariga bo'ysundirganlar.

O'rta Osiyoni arablar bosib, islomlashtirgunlariga qadar, zardushtiylik O'rta Osiyo xalqlarining asosiy dinlaridan biri hisoblangan.

Xozirgi kunda zardushtiylikka e'tiqod qiluvchilar soni keskin kamayib ketgan. Ular Hindistonning Bombay, Gujarat shtatlarida (115.000ga yaqin) va Eronning ba'zi chekka viloyatlarida saqlanib qolganlar. Bombayda zardushtiylarning madaniy markazi Koma nomidagi institut faoliyat olib boradi.

«Avesto» - zardushtiylik dinining muqaddas kitobidir. «Avesto» (yoki Ovasto) Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon, xalqlarining islomgacha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlar, ma'naviy madaniyatini o'rganishda muhim va yagona manbadir. «Avesto» tarkibiga kirgan materiallar, olimlarning isbotlashlaricha, qariyb 2 ming yil davomida (mil. avv. 3-ming yillik oxirlari - 2-ming yillik boshlaridan milodning boshlarigacha) vujudga kelib, avloddan-avlodga og'zaki ko'chib borgan. «Avesto»ning ko'p qismlari yo'qolib ketgan, uning taxminan yettidan bir qismi saqlanib qolgan va mil. avv. 3-asrda Arshakiylar davrida to'planib kitob qilingan. «Avesto» tarkibi uch tarixiy qatlamga ajratiladi:

1. Eng qadimiy qismi mil. avv. 3-ming yillik oxirlari va 2- ming yillikda vujudga kelgan Yashtlar; ularda tarixdan ilgarigi qabilaviy e'tiqodlar, ko'pxudolik tasavvurlari o'z ifodasini topgan;

2. Undan keyingi qismi Gotlar deb ataladi. Unda xudo Axuramazda xaqidagi ta'limot keng aks ettirilgan. Bu qismi mil. avv. 6-asrda yashagan Zaratushtra (Zardusht) ijodiga mansub deb taxmin qilinadi.

3. Qadimiy kupxudolik va keyingi yakkaxudolik g'oyalari o'rtasidagi kurash sharoitida mil. avv. 5-asrda har ikkalasini kelishtiruvchi mazdayasna (mazdaiylik) ta'limoti shakllanadi va bu «Avesto» ta'limotining asosiy qismimni tashkil etadi. Xozir fanda ma'lum bo'lgan «Avesto» milodning 6-asrlarida Eronda Sosoniylardan shoh Xusrav I hukmronligi davrida yozilgan. «Avesto» Sosoniylar davrida muqaddas hisoblangan va xalq orasida unutilgan qadimiy tilda yozilgan,

uni ko'pchilik ruhoniylar ham tushuna olmaganliklari sababli xam o'sha davrning adabiy tili hisoblangan paxlaviy tiliga tarjima qilinib, asosiy matnga keng sharhlar yozilgan. Bu tarjima va sharhlar «Zend» nomi bilan ma'lum. «Avesto» katta hajmda bo'lganligi sababli dindorlarning kundalik faoliyatida foydalanish uchun «Kichik «Avesto»» yaratilgan. «Kichik «Avesto»» «Katta «Avesto»»dan tanlab olingan duolar to'plamidan iborat bo'lgan. VII asrda sosoniylar davlati mag'lubiyatga uchrab, Eron va Markaziy Osiyo arablar tomonidan bosib olinganidan so'ng zardushtiylik diniga sig'inuvchilar ta'qib ostiga olingani sababli «Avesto»ning ko'pgina qismi asta-sekin unutilgan va yo'qolgan. Bizgacha yetib kelgan «Avesto» Yasht, Vispart, Vendidot, Yasna nomlari bilan ma'lum bo'lgan bo'laklardan tashkil topgan. «Avesto» zardushtiylik diniy-falsafiy sistemasining tamoyil va qoidalari mazmunini umumiy tarzda o'z ichiga oladi. «Avesto» qadimiy kishilarning dunyoqarash va ideallarini, huquqiy va axloqiy kodekslarini ham o'z ichiga olgan. «Avesto»da naturfilosofiya, kosmogoniya, tarix, etika, meditsinaga oid ma'lumotlar bayon etilgan.

Axuramazdaning rasmiy tus olishiga qadar uning Zardusht orqali vahiy qilingan ilohiy xabarlar Turon va Eron zamini xalqlari orasida asrlar davomida turli diniy marosimlar, duolar, madhlar, sura va oyatlar sifatida yig'ila boshlagan. Bular Zardushtning o'limidan keyin kitob xolida jamlangan va «Avesto» (o'rnatilgan, qat'iy qilib belgilangan qonun-qoidalar) deb nom olgan.

Afsuski, bu eng qadimgi yozma adabiyot, axloq-odob qoidalarini o'zida mujassamlashtirgan asar bizgacha to'liq yetib kelmagan. «Avesto» xaqida buyuk olim Abu Rayxon Beruniy shunday yozadi: «Yilnoma kitoblarida bunday deyilgan: podshoh Doro ibn Doro xazinasida (Avestoning) o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonlarni vayron qilib ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri Avestoning beshdan uchi yo'qolib ketdi».

«Avesto»ning Aleksandr Makedonskiy tomonidan Gretsiyaga olib ketilgani, zarur joylarini tarjima ettirib, qolganini kuydirtirib yuborganini, o'n ikki ming qoramol terisidagi tillo matn xaqidagi (Tabariyda 12000 pergament) keyingi

davrlarda yaratilgan Zardushtiylik adabiyotida («Bundaxishin», «Shaxrixon Eron», «Denkard» (IX a), «Arda Viraf-namak» (IXa) «Tansar xatlari»(VI) «Muruj az-zaxab» «Forsnoma» va boshqa ma'lumotlar bor. Bu asarlarda yunoniylar otashxonalarni vayron qilganlari, ibodatxonalar boyliklarini talon-taroj etganlari, din arboblari o'ldirib, asir olib ketganliklari xaqida yoziladi. Hozir bizgacha yetib kelgan «Avesto», Beruniyning yozishicha, aslining beshdan ikki qismi, xolos. «Avesto» o'ttiz «nask» edi, majusiylar qo'lida o'n ikki nask chamasi qoldi».

Yozma manbalarga ko'ra xaqiqatan xam «Avesto» mo'bidlar avlodidan-avlodga, og'izdan-og'izga o'tib, asrlar osha yashirin saqlangan. Dastavval (1 yoki 2 asrlarda) Arshakiylar davrida «Avesto» qismlarini to'plash boshlangan. Keyincha Sosoniylar davrida, Ardasher Papakan (227-243) davrida yozib olingan. Ayniqsa, Shopur (243-273) davrida astrologiya, tabobat, riyoziyot va falsafaga oid qismlari yozib olinib, xamma qismlari tartibga keltirilgan, keyinchalik bu asosiy matn to'ldirib borilgan. «Avesto»ning ana shu to'ldirilgan nusxasining ikki to'liq qo'lyozmasi Hindistonda saqlanadi, biri Bombayda zardushtiylarning madaniy markazi bo'lmish Koma nomidagi institutda, ikkinchisi Kalkuttadagi davlat kutubxonasida. Har ikkalasi parfyan yozuvida.

Bizning fikrimizcha, xalqlarning dastlabki vatani bo'lmish Janubiy O'roldagi o'tga sig'inuvchilar dini xali maslak, nazariy jihatdan ishlab chiqilmagan bo'lsa kerak. «Avesto»ning 13,17,149 yashtlarida airiya, tuiiya, sairima, saina, daxa qabilalari zardushtiylik dinini qabul qilishdi.

Natijada «Avesto»ning eng qadimgi qismlari, yashtlar yuzaga keladi. Insoniyat tarixida birinchi bo'lib Zardusht insonlarning bu dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri hal bo'lajagi xaqidagi ta'limotni yuzaga keltirdi.

«Avesto»ning saqlanib qolgan to'rtta kitobidan birinchisining nomi «Vadovdot» (devlarga qarshi qonun) deb ataladi. U yigirma ikki bob bo'lib, asosan Zardusht bilan Axuramazdaning savol-javoblari va muloqotlaridan iborat. Ikkinchi kitob «Yosin» deb ataladi. Va uning mazmunini asosan Zardushtning xatlari (nomalari) yoki gatlari tashkil etadi. U yetmish ikki «Xa», ya'ni bashoratdan iboratdir. Birinchi bashoratda tabiat va xalolliklar hukmdori, xamma narsani

biladigan va xamma narsaga qodir Axuramazdaning vahiy-lari xaq-ligiga imon keltirishga doir duolar mavjuddir. Uchinchi kitob «Visporat» deb nomlangan. U yigirma to'rt bobdan iborat bo'lib, olamni bilishga doir pand-nasihat-lardan iboratdir. Uni ibodat namozlari yig'indisi ham deyishadi. Ayni paytda «Yosin»ga qo'shimcha hisoblanadi. To'rtinchi kitob «Bundaxash» deb atalib, u qadimiy Eron-paxlaviy tilida yozilgan. Unda xudoning zolim kuchlarga qarshi kurashda ulug'lovchi o'ziga xos yigirma ikkita qadimiy qo'shiqlar majmuasi joy olgan.

«Avesto» xaqida eng muhim manba IX asrga oid «Denkard» (din amallari) asaridir. Unda «Avesto»ning yigirma bir kitobi to'la ta'riflab berilgan. Bu ta'riflar: savobli ishlar yo'riqnomasi; diniy marosimlar va rasm rusmlar qoidasi; zardushtiylik ta'limoti asoslari; dunyoning Axuramazda tomonidan yaratilishi; oxirat kuni va undagi hisob-kitob; falakiyot; ijtimoiy-huquqiy qonun-qoidalar; Zardushtning tug'ilishi va bolaligi; xaq yo'lini tutish; jamiyat a'zolarining xaq-huquqlari; devlar, jinlar kabi yovuz kuchlarga qarshi o'qiladigan duolar, amallar va boshqalardan iboratdir.

Zardushtiylik dini xaqida ingliz olimi Dj.Buger, fransuz olimi A. Dyupperon juda qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Masalan, A.Dyupperon 1755 yilda Hindistonga ilmiy safar qilib, u yerdagi zardushtiylar orasida uch yil yashagan, ularning ibodat-lari, urf-odat-larini yaxshi o'rgangan va «Avesto»ni fransuz tiliga tarjima qilgan. Uch jildlik tarjima 1771 yilda nashr etilgan. Ayni paytda shuni ham ta'kidlash joizki, olimlarimizning fikricha, «Avesto» G'arbiy Yevropa, Eron va Xindiston tillari orqali bizga yetib kelgani uchun undagi nomlar, atamalar aksariyat hollarda asliga to'g'ri kelmaydi. «Avesto»da turk tiliga xos xususiyatlar juda kam saqlangan.

Zardushtiylik dini Eron va Turon zaminida ilk davlatlarning paydo bo'lishida muhim o'rin tutdi. Ilk zardushtiylik dini darhol din sifatida vujudga kelgani yo'q, balki u o'zining ko'rinishidan to rasman din sifatida shakllangunga qadar ma'lum tarixiy davrni bosib o'tdi. Bu davrda dinning ko'rinishi jamiyatning shaklini belgiladi va mukammalashib borib, davlat dini darajasiga ko'tarildi. Davlat jamiyat o'rtasidagi vositachilikni, boshqaruvni ta'minlab, o'sha davr boshqaruvining qonun- qoidalarining yaralishiga turtki berdi. O'rta

Osiyo, xususan, Qadimgi Baqtriya va Margʻiyona hududlarida dastlabki shahar davlatlarning vujudga kelishida, tabiiyki, zardushtiylik gʻoyalari muhim oʻrin tutgan. Lekin, zardushtiylik dinining vujudga kelishi va uning davlat dini darajasiga koʻtarilishi bir bosqichda emas, balki bir necha bosqichlarda amalga oshgan.

Zardushtiylik dinining vujudga kelishini olimlar Eron hududlaridan qidirib, Axmoniylarning davlat dini boʻlganligini aloxida taʼkidlaydilar. Shuningdek, zardushtiylik dini va “Avesto”ning vatani Xorazm ekanligi toʻgʻrisidagi gʻoyalar ham mavjud boʻlib, dinning kelib chiqishi miloddan avvalgi VII-VI asrlardan nariga oʻtmaydi, degan ilmiy gʻoya fanda paydo boʻldi.

Zardushtiylarning dastlabki ilk jamoasi choʻl xalqlari boʻlib, zardushtiylikning dastlabki tasavvurlari ham aynan shu jamoalar orasida paydo boʻldi va bronza davridan boshlab oʻtroq aholi orasida rasmiy din koʻrinishini ola boshladi. Shunga koʻra Sopolli, Dashli, Tugʻoloq, Gonur madaniyatlari arxeologik materiallari tarixiy nuqtai-nazardan falsafiy yondashuvni talab qiladi. Chunki, bu yurt va madaniyat sohiblarining koʻmish bilan bogʻliq odatlari, aniqrogʻi, dastlab qishloq darajasidagi otapsharastlik, keyinchalik shahar davlat darajasidagi protozardushtiylik ibodatxonalariga aylanib, “Avesto”da eslatilgan mamlakatlarni moddiylikda vujudga kelishiga turtki beradi hamda ularning gʻoyaviy-mafkuraviy dunyoqarashi Zaratushtra nomi bilan bogʻliq dinda rasmiylashishiga imkoniyatlar yaratadi.

Qadimgi Baqtriya va Margʻiyona yodgorliklari materiallari bronza davrida insoniyat tarixida muhim ijtimoiy - iqtisodiy tub oʻzgarishlar yuz berganligini koʻrsatmoqda. Chorvachilikdan dehqonchilikning ajralib chiqishi natijasida azaldan bir etno-madaniy qatlamga ega boʻlgan xalqlarda boʻlinish yuz berib, bronza davrida Oʻrta Osiyo xalqlarida ikki madaniy xoʻjalik shakli vujudga keladi. Zardushtiylik dinining ilk ildizlari madaniy-xoʻjalik boʻlinishi yuz bermasdan avval, ibtidoiy jamoalar bagʻrida, paydo boʻla boshlagan. Jamoalarning oʻzlashtiruvchi xoʻjalikdan ishlab chiqaruvchi xoʻjalikka oʻta boshlagan davri Oʻrta Osiyo sharoitida eneolit davriga toʻgʻri kelib, xonaki chorvachilik iqtisodiy xayotda katta rol oʻynagan. Shuning uchun ham, “Avesto”da keltirilgan gʻoyalari, yaʼni boylikning asosiy belgisi chorva bilan belgilanganligi, din dastlab chorvadorlar orasida paydo boʻldi degan fikrni asosli hisoblashga turtki boʻlgan. XX asrning 70 yillaridan

boshlab Qadimgi Baqtriya, So‘g‘diyona, Marg‘iyona hududlarida o‘tkazilgan arxeologik izlanishlar natijasida topilgan monumental zardushtiylik ibodatxonalari va “daxyupati” tegishli bo‘lgai davlat boshqaruv mahkamasi mavjud tasavvurlarga qator aniqliklar kiritdi. Bronza davrida vujudga kelgan o‘troq dehqonchilik vohalari aholisining diniy qarashlari dastlabki davrda dasht aholisi diniy qarashlari bilan ko‘p jihatdan monand bo‘lsada, o‘troq aholining keyingi tarixiy taraqqiyotida cho‘l aholisidan keskin farq qilgan xolda, din jamiyatni boshqarishning ustuvor omiliga aylandi. Tabiiyki, o‘troq dehqonlar hayotida yer, suv, havo, olov(quyosh) muhim ahamiyatga ega. Tabiat unsurlariga e‘tiqod qilish dehqonlar jamoasida tobora uyg‘unlashib, aniq tizimga kirib boradi³.

Qadimgi Baqtriya va Marg‘iyona yodgorliklari Jarqo‘ton, Dashli, Gonur, Tug‘oloqda topib o‘rganilgan diniy maqsaddagi inshootlar zardushtiylik dinining vujudga kelishi va davlat diniga aylanish jarayonlari haqidagi ilmiy g‘oyalarni asoslashga imkon berdi. Janubiy O‘zbekistonda ochib o‘rganilgan Sopollitepa, Jarqo‘ton, Bo‘ston yodgorliklari, Shimoliy Afg‘onistondagi Dashli, Marg‘iyonadagi Gonur, Tug‘oloq yodgorliklarining ochilishi zardushtiylik dinining kelib chiqishi haqida ilmiy tasavvurga aniqliklar kiritdi.

Dastlab Sh.Shaydullaev tomonidan zardushtiylik dinining rivojlanish bosqichlari Qadimgi Baqtriya yodgorliklari misolida quyidagi turlarga bo‘lingan edi: birinchi, ilk zardushtiylik davri (Jarqo‘ton, Tug‘oloq, Dashli misolida), ikkinchi miloddan avvalgi I ming yillik boshlaridan axmoniylargacha bo‘lgan davr, ya‘ni Zaratushtra davri, keyingi bosqichlar esa axmoniyilar davrida zardushtiylik, saklar zardushtiyligi va sosoniylar zardushtiyligi⁴.

Zardushtiylik dini ta‘limoti faoliyat ko‘rsatgan katta bir davrni esa mavjud arxeologik va yozma manbalarga asoslanib 4 bosqichga bo‘lish mumkin.

1. Protozardushtiylik bosqichi (Miloddan avvalgi III ming yillik ikkinchi yarmi - 1500-1200 yillar).
2. Zardushtiylik rasman din sifatida shakllangan davr (Miloddan avvalgi 1200-700 yillar),
3. Zardushtiylik dininig gullab yashnagan davri (VII asr ikkinchi yarmidan to arablar

³ Ўзбек халқининг келиб чиқиши; илмий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих, - Т., 2004, - б. 4

⁴ www.ziyonet.uz

bosqiniga qadar)

4. Zardushtiylik dinining islom dini bilan aralashuvi va modernizatsiyasi Qadimgi Baqtriya va Marg‘iyonaning bronza davri yodgorliklaridagi, o‘troq dehqonchilik madaniyati aholisining ijtimoiy turmush tarzi, zoolatrik diniy qarashlari, ko‘mish bilan bog‘lash odatlari shuni ko‘rsatmoqdaki, zardushtiylik — otashparastlik negizida tashkil topib, o‘zining sistemalashgan diniy ko‘rinishini o‘troq aholi jamoalari orasida olgan, dinning vujudga kelishidagi dastlabki davrda, aholining asosiy bosh xudosi quyosh xudosi bo‘lganligi shubhasizdir. Chunki, Sarazm va Jarqo‘ton yodgorliklarida ochib o‘rganilgan otashparastlik ibodatxonalari shundan dalolat berib turibdi.

Misrliklar va Shumerliklar davlatning bosh xomiysi sifatida quyoshni tushunganlar va davlatni boshqarishda quyosh kultini muqaddas unsur sifatida qadrlashgan, Qadimgi Eronda vujudga kelgan Axmoniyar davlatida ham Doro I hokimiyat tepasiga Axuramazda yordami bilan kelganligini, unga hokimiyatni va unga xizmat qiluvchi xalqlarni Axuramazda taqdim etganligi aytiladi. Axuramazda nurdan yaralgan bo‘lib, Ahmoniyar davlatida quyosh xudosi bosh xudo sifatida tan olingan va Axuramazda timsolida aks ettirilgan.

Bronza davrida shakllana boshlagan zardushtiylik dinining dastlab chorvadorlar orasida ildiz otib borib, ular xayotida ham quyosh eng muqaddas oliy ibtido sifatida qadrlangan. Din sistemalashmagan o‘sha davrlarda aholi tog‘ tepalarida, ko‘l bo‘ylarida, quyosh yaxshi ko‘rinadigan joylarda quyoshga sig‘inib, yaylovga boy yerlarni so‘rashgan. Zardushtiylik dinining navbatdagi bosqichlarida zardushtiylik rasmiy din ko‘rinishini olib borib, Jarqo‘ton, Dashli-3, Tug‘oloq-21 ibodatxonalari misolida “zikkuratlar”ning shakllanishiga va kohinlar timsolida mujassamlashgan dastlabki shahar davlatlari hukmdorlarining vujudga kelishiga turtki bergan.

Zardushtiylik dinining dastlabki ko‘rinishlarining vujudga kelishi bilan dastlab oilaviy, keyinchalik urug‘ va qabila dini darajasiga o‘sib chiqdi. Ma’lum bir tizim asosida rivojlanib borishi natijasida u ma’lum tizimga kirdi va dinning rahnamolari-koxinlar paydo bo‘ldi. Koxinlar dastlabki davrda ham diniy va dunyoviy hokimiyatni o‘z qo‘llari ostida birlashtirgan bo‘lib, davlat darajasidagi diniy ko‘rinishni shakllantirishga harakat qilishganlar.

Jarqo‘ton ibodatxonasi dastlabki davlat darajasiga ko‘tarilgan ibodatxonadir. Jarqo‘ton ibodatxonasida dinning davlat darajasiga ko‘tarilishi va diniy amallarda eng muhim to‘rt unsur olov, yer, suv, havoning muqaddaslashtirilganligi jamiyatda yagona tizim vujudga kelganligini ko‘rsatadi. Birinchidan, Jarqo‘ton yodgorligida aholining qabristoni nekropol aholi turar joyidan chetda, shahar tashqarisida barpo etildi. Bu esa ibodatxonaning markazidagi bosh quyosh otashkadasi va ibodatxonaning muqaddaslashtirilganligini, ibodat vaqtida havoning sofligini ta‘minlanganligini anglatadi. Ikkinchidan, olov timsoli sifatida ibodatxonada otashkadalarning mavjudligi. Uchinchidan, Jarqo‘ton ibodatxonasida suvning muqaddasligini anglatuvchi quduqlar mavjudligi va dehqonchilik bilan bog‘liq marosimlarda suv xudolariga atab qurbonliklar qilinib, ularning ulug‘langanligi. To‘rtinchidan, yerning ulug‘langanligi timsoli sifatida ibodatxonaga kirayotganda tosh yo‘laklarning mavjudligi va topinuvchi oyog‘iga ilashgan barcha nopok narsalar bu yerdan o‘tganda yerni iflos qilmaslik ko‘rinishidir.

Din dastlabki shahar davlatlarning paydo bo‘lishida mafkuraviy birlashtiruvchi vazifasini bajarib borib, mukammal tizimga kirgan. Jamiyatning bosh qonun-qoidolari va normalariga aylangan. Masalan, Jarqo‘ton protozardushtiylik ibodatxonasi quyosh kultiga atab qurilgan muqaddas boshqaruv mahkamasi bo‘lgan⁵, - degan, g‘oyani ilgari surish mumkin. Shuningdek, aholi bosh xudo Axuramazda timsolini qush va ilon orqalagan qush tasvirlari orqali ifodalashgan.

Zardushtiylikda sigirga chorvaning bosh hayvoni, oilaning iqtisodiy asosi sifatida qaralgan. Shuning uchun ham bosh xudo Axura-mazda Aryanam- Vayjada dastlab sigirni yaratdi. Daigiya daryosi bo‘yida oy singari oq ho‘kiz yaratildi⁶.

Shunday qilib, zardushtiylik dini rasman din sifatida shakllangunga qadar, uning dastlabki izlari otashparast aholi orasida shakllanib borgan. Zaratushtra islohotchi sifatida bu dinni yangi o‘zgarishlar va tuzatishlar bilan yagona sistemaga soldi. Zardushtiylik dinining vatani ayrim ochilgan bir viloyat hududida emas, balki arxeologik izlanishlar natijalariga ko‘ra, uning ilk vatani Turon zamini va Sharqiy Eron tillar tarqalgan hududlar

⁵ Асқаров А. Сапаллитепа., Асқаров А.А, Абдуллаев Б.Н, Джаркутан. Сарканяди В.И. Древние земледельцы Афганистана. Ўша муаллимф. И здесь говорил Заратуштра. ...; Ўша муаллимф, В поисках страны Маргуш. Ўша муаллимф. Некрополь Гоиура и иранское язычество. Массон В.М, Древнеземледельческая культура Маргианы.

⁶ www.avesta.org.ru

bo'lgan. Bu hududlar birinchi navbatda So'g'diyona, Baktريا, Marg'iyona va Xorazm bo'lib, bu yerlarda zardushtiylik dini ildizlari eneolit davridayoq nish ura boshladi. Bronza davriga kelib esa rasmiy din sifatida monumental ibodatxonalar barpo etgan umumxalq dini sifatida shakllandi. Demak, Videvdatda keltirilgan 16 mamlakatlar zardushtiylik g'oyalari davlatning bosh g'oyasi sifatida qator topgan vatanlaridir. Bu hududlarda zardushtiylik udumlarining izlari arxeologik materiallarda aksini topgan, ular ilmiy jihatdan tahlil qilinmoqda. Zardushtiylik nomi bilan vujudga kelgan dinning azaliy makoni Turon va Sharqiy Eron, Xuroson ekanligi shubxasizdir.

Zardushtiylik dini jahon dinlari ichida eng qadimgilaridan hisoblanib, bu dinning asoschisi Zaratushtadir. Uzoq vaqt davomida uni Qadimgi Eronning g'arbiy qismida, Ozarbayjon hududlarida yashagan deb hisoblab kelindi. XX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, payg'ambar Zaratushtra tomonidan yaratilgan "Avesto" ning eng Qadimgi qismi — gatlarda keltirilgan fikrlar bu dinning bundan 3500 ming yillar avval yaratilganligidan dalolat beradi. Zardushtiylik sug'orma dehqonchilik jamoalari orasida, Turon va shimoliy-sharqiy Xuroson hududlarida yaxlit diniy tizimga kirganligi, O'zbekistonning janubiy mintaqalari bu dinning davlat dini darajasiga ko'tarilishida muhim o'rin tutib, miloddan avvalgi VII asrdan to milodiy VIII asrgacha uch yirik imperiyaning davlat dini bo'lib gullab-yashnashiga asos bergan mintaqalardan biri bo'lganligini ko'rsatmoqda.

Zardushtiylik dinining bosh diniy kulti quyosh va uning parchasi - olov bo'lib, dastlab otashparast hisoblangan chorvador qabilalar e'tiqodida ham muhim o'rin tutgan. Ular e'tiqodida olov ikki jihatga: ilohlar panteonida bosh xudo hisoblangan Tabiti va ajdodlar kulti hisoblangan Qolaqsoy timsoliga ega bo'lgan. Uning timsoli sifatida eneolit davri moddiy madaniyat obidalarida otashkada ko'rinishida o'z izini qoldirgan. U Qadimgi Sug'diyona, Baktريا va Marg'iyona vohasidagi oilaviy xarakterdan kishilik tarixining keyingi bosqichlarda, ya'ni bronza davridan boshlab Dashli, Gonur, Tugolok va Jarqo'ton kabi yirik mafkuraviy—diniy markazlarning monumental ibodatxonalari misolida qabila va urug' jamoalarining ilk davlat dini darajasiga ko'tarildi. Olov zardushtiylik dinida bosh poklovchi vosita hisoblanib, uning izlari diniy e'tiqod maskanlarida, ko'mish bilan bog'liq urf-odatlarda, qadimgi ajdodlarning turmush tarzi va diniy marosimlarida muhim o'rin

tutgan. Bronza davri moddiy madaniyatida olov yuksak iloh sifatida qadrlanib, uning eng yuqori choʻqqiga kutarilganligi Dashli-3, Jarqoʻton, Gonur kabi yodgorliklarda monumental ibodatxona qurilishida yakkol koʻzga tashlanadi. Otashparastlar bosh koxini otashkada atrofida diniy marosim va bayramlarni oʻtkazgan. Olovga topinishda bajariladigan marosimlar cheksiz qurbonliklar bilan bogʻlab olib borilgan, Otashparastlarda urugʻ va qabila xudolariga atab qurbonliklar qilish shunchalar avj oldiki, bu nafaqat cheksiz isrofgarchilikka, balki jamoa aʼzolarining iqtisodiy xayotiga ham zarar keltiradi. Otashparastlar diniy sistemasini tartibga solish, diniy eʼtiqod normalarini isloh qilishni xayotning oʻzi talab eta boshladi. Axmoniylar imperiyasi arafasida bu zaruriyat kun tartibiga chiqib, tarixiy shaxs Zaratushtra otashparastlik diniy qarashlarining bosh islohotchisi sifatida faoliyat olib bordi. Biroq, Eron hududida vujudga kelgan Axmoniylar davlati hukmdorlari davlatni mustahkamlanida Zaratushtra gʻoyalaridan ustalik bilan foydalandilar. va oʻzlarini Axuramazda inʼom etgan hokimiyat egalari sifatida koʻrsatdilar. Chunonchi, Axmoniylar davri moddiy yozma yodgorliklari Bexistun, Naqshi Rostam va Suzadagi devoriy qoya yozuvlarida Zaratushtra nomi tilga olinmaydi, balki hokimiyat toʻgʻridan- toʻgʻri Axuramazda tomonidan axmoniy shohlariga inʼom etilganligi taʼkidlanadi⁷. Sosoniylar davriga kelib, zardushtiylar dini har jihatdan mustahkamlanib, barcha shaharlarda, qishloq markazlarida ibodatxonalar va otashkadalar qurish amaliyoti avj oladi. Shu orqali Sosoniy hukmdorlari oʻz hokimiyatlarini mustahkamlashga intilganlar. Sosoniylar davrida Anaxitaga atab qurilgan ibodatxona haqida Pliniy, Plutarx, Strabon, Agafangel maʼlumot beradilar. Ibodatxonalar maʼbuda Anaxitaga bagʻishlab qurilgan boʻlib, u Sosoniylar sulolasining homiysi sifatida qadrlantan va ulardan biri "Anahit Artahastr"_t yaʼni sosoniylarning birinchi hukmdori Ardasher I ga bagʻishlangan boʻlishi mumkin⁸. Sosoniylar davrida mamlakatda otashkadalar maxsus rejalar asosida qurilgan ibodatxonalarda boʻlib, ibodatxonalar qalin mudofaa devorlari bilan oʻrab olinadi, Bu esa olovni muqaddaslashtirib, unga alohida davlat darajasida maqom bergan². Kichik Osiyo va Armanistondagi ibodatxonalar esa funksiyasiga koʻra uch turga, yaʼni urugʻ ibodatxonasi, shahar ibodatxonasi, davlatning bosh ibodatxonasiga boʻlingai.

⁷ www.avesta.org.ru

⁸ www.avesta.org.ru

Ibodatxonalar jamiyatdagi iqtisodiy va siyosiy boshqaruvni nazorat qilib, hududiy dehqonchilikning ravnaq topishida muhim rol o'ynagan³. Shunday qilib, bronza davri Baqtriya va Marg'iyona hududidan topilgan ibodatxonalardagi bosh otashkadalar koxinlarning ilk davlatchilik jarayonlarida faol qatnashib diniy-dunyoviy hokimiyat egalari bo'lganligiga ishora qiladi. Chunki muqaddas kulxonada bosh otashkada kultlarining saklanishi, ibodatxona sajdagoxining bosh ibodat markazi ekanligi, diniy marosim, kultlar bilan bog'liq udumlarning ibodatxona boshqaruviga o'tkazilishi, otashparastlariing eng muqaddas ichimligi ibodatxona qoshidagi "qex"larda "okqxona"larda tayyorlanib, shaxsan mubodlar nazorati ostida bo'lganligi buni isbotlab turibdi.

Mesopotamiya dehqon jamoalari faoliyati bilan bog'liq tarixiy jarayonlar Qadimgi Sharqda keng tarqalgan bo'lib, O'rta Osiyo qadimgi dunyosi ham bundan mustasno emas edi. Aynan shunga o'xshash va tarixiy jarayonlar "O'rta Osiyo Qadimgi dehqon jamoalari xayotida ham o'z aksini topganligiga shubxa yo'q. Darxaqiqat, O'rta Osiyoning janubiy mintaqalarida eneolit va bronza davrida iqtisodiy xayoti sug'orma dehqonchilik asosida qurilgan dehqon jamoalari yashagan. Ular arxeologik tadqiqotlariga ko'ra, Nomozgox va uning Qadimgi Baqtriya madaniy o'chog'i - Sopolli madaniyati yodgorliklari misolida o'rganilgan. Qadimgi Baqtriya va Marg'iyona bronza davri o'troq dehqonchilik madaniyati obidalari Sopollitepa, Jarqo'ton, Boston, Dashli, Gonur, To'goloq, Toxirboy-3 kabi yodgorliklarda olib borilgan keng qamrovli tadqiqot natijalariga ko'ra, xususiy mulk egaligining asosi patriarxal oilalarning yerga egalik qilishidan boshlangan bo'lib, bu jarayon erkin dehqon jamoalari - kashovarzlarning faoliyati bilan bog'liq edi. O'sha davr ijtimoiy- iqtisodiy talablariga ko'ra, ularni uyushtirish, yangi yerlarni o'zlashirish, kanallar qazdirish, suv taqsimotini to'g'gri tashkil etish, tashqi xavfga qarshi kurashish qal'a-qo'rg'onlar, mudofaa inshootlarini qurishni uyushtirish kabi umumjamoa ishlariga rahbarlik qilish vazifalari dastlab diniy ruxoniylar - otashparast koxinlar zimmasiga tushishi tabiiy bir hol edi. Chunki, xususiy mulk egalarini ma'naviy va mafkuraviy jihatdan birlashtirish diniy raxnamolar - otashparast koxinlar qo'lida edi. Agar Sopollitepani ijtimoiy tarkibiga ko'ra patriarxal oila asosida qurilgan erkin dehqon jamoalari (individual ishlab chiqaruvchilar) uyushmasi sifatida taxlil etilsa, ilk shahar - davlatlar Jarqo'ton, Gonur va Tugshoq- 21 yodgorliklaridagi monumental ibodatxonalarga ko'ra, xuddi

Mesopotamiyadagidek, “en koxin” boshqargan “kavi”lar boshqaruvidagi ilk davlat uyushmalari sifatida tasavvur etishimiz mumkin.

Axmoniyalar podsholigiga qadar Oʻrta Osiyoning janubiy hududlarida tarkib topib, yozma manbalarda tilga olingan Qadimgi Baqtriya podsholigini esa “latal gegemonlar” boshqargan shahar-davlatlarning konfederativ davlati sifatida tasavvur etish mumkin. Ilk davlatning eng muhim belgilaridan biri uning hududiy chegaraga ega boʻlishidir. Bu jarayon Baqtriyaning Dashli-1, Dashli-2, Sopollitepa, Jarqoʻton yodgorliklarida, Margʻiyonaning Gonur, Tugʻoloq-1, Tugʻoloq-21 yodgorliklarida yaqqol koʻzga tashlanadi. Chunki, ularning har biri daryo oʻzanlarining quyi xuvdalarida tarkib topgan mikrooazislarda har bir tuman hududiy doirasida bir necha qishloq jamoalarini (vislarni) birlashtirgan markaz sifatida shakllangan, Demak, “Avesto”da keltirilgan Vara va Zarezana timsoli bu yodgorliklarda oʻzining toʻla inikosini topgan, Dashli-1, Sopollitepa, Tugʻoloq-1 yodgorliklarida urugʻ oqsoqoli - Vispati davlatchilikning ilk bosqichi diniy-dunyoviy hukmdori sifatida faoliyat koʻrsatgan boʻlsa, keyingi bosqichlarda Jarqoʻton, Gonur, Tugʻoloq-21 misolida qabilalar ittifoqi boshligʻi - Zantupati darajasiga koʻtariladi va “harbiy-demokratiya” boshqaruvi, Mesopotamiyadagidek boshqaruv tizimini taʼminlagan. Nmana, vis, zantu, daxyu atamaları “Avesto” da aks etgan davlatchilik gʻoyalari boʻlib, bu gʻoyalar bronza davri Baqtriya va Margʻiyona moddiy madaniyatida oʻzining toʻla aksini topgan.

Qadimgi Sharq, Oʻrta Sharq va Oʻrta Osiyo tarixi Qadimgi Sharq sivilizatsiyalarining tarkibi boʻlib, bu jarayonga juda katta hududlar birin-ketin tortilgan va Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining yangi mahalliy oʻchoqlarini tarkib topishiga olib kelgan.

Tabiiyki, ilk sivilizatsiyalar oʻtroq dehqonchilikning yoyilishi bilan vujudga kelib, dastlab u Yaqin va Oʻrta Sharqda paydo boʻldi va u joylarda dastlabki “nom” tipidagi mitti shahar-davlatlarning vujudga kelishiga imkon berdi. Miloddan avvalgi VI - V ming yilliklarda Afrika va Osiyoda, Nil, Frot, Xind, Xuanxe, Karun va Kerxa daryo xavzalari bobo dehqonlar tomonidan oʻzlashtirildi. Tabiiyki, bu daryolar katta saxrolar orasidan oʻtib, sunʼiy sugorish inshootlarisiz bu joylarda devdonchilik Kilib bulmas edi. Jamoalar yashab turgan joylarda kundalik ehtiyoj sifatida foydalaniladigan daromadning kamligi sekin-asta ibtidoiy ajdodlarni tabiiy-geografik qulayliklari mavjud boʻlgan mintaqalarni

o'zlashtirishga majbur qildi. Suniy sug'orishga asoslangan dehqonchilik jamoalarini boshqarish dastlabki davlat uyushmalarini tarkib topishiga olib keldi. Dastlabki davlat uyushmalari esa maxalliy ibodatxona koxinlari tomonidan boshqarildi. Shuning uchun ham aholi jamiyat hayotining moddiy asosi hisoblangan dehqonchilik va sug'orish bilan bog'liq masalalar koxin-hukmdorlar qo'lga o'tdi. Bu jarayon Misr va Mesopatamiya moddiy madaniyat yodgorliklarida yaxshi kuzatiladi, Koxinlar dehqonchilik marosimlarini boshqaruvchi shaxs sifatida tarix maydoniga chiqdi.

Qadimgi Baqtriya va Marg'iyonaning ilk dehqonchilik mintaqalarida vujudga kelgan Gonur, Tug'oloq-1, Tug'oloq-21, Jarqo'ton Qadimgi shahar xarobalari va ularda qad ko'targan ibodatxonalar dehqon jamoalari xayotida katta o'rin tutib, dastlabki ilk davlatlarning paydo bo'lishida muhim rol o'ynagan. Gonur Tug'oloq-1, Tug'oloq-21, Jarqo'ton yodgorliklari uz tarkibiga ko'ra, Varezana ko'rinishidagi ilk shaharlar bo'lib, ular tepasida diniy va dunyoviy hukmdor Zantupati turgan. Kddimgi Sharqda bo'lgani kabi Avesto g'oyalariga ko'ra, zantudan yuqori bosqich "daxyu" bo'lib, uni - oliy diniy Hukmdor - koxin boshqargan. Dastlab Baqtriya - Marg'iyona jamoalarida diniy boshqaruv tizimi kuchli bo'lib, ilk temir davriga kelganda dunyoviy- Xarbiy hukmdorning legal-gegemonning jamoadagi mavqei ortib boradi va an'anaviy demokratik boshqaruv tizimi, ya'ni vyaxalar (jamoaning eng nufuzli kishilaridan tashkil topgan oqsoqollar kengashi) u³ o'rnini yakka hokimliklarga (legal-gegemonlarga) asta-sekin bo'shatib beradi.

Bu xolat O'rta Osiyo sharoitida bizning nazarimizda ilk temir davri arafasida yuz bergan. Bunga misol sifatida yuqorida eslatilgan "Qadimgi Baqtriya podsholigini ko'rsatish mumkin. Darxaqiqat, dastlab Qadimgi Baqtriya va Marg'iyonaning ibodatxonalari koxinlari kulida diniy va dunyoviy hokimiyat to'plaiganligi shubhasizdir, Chunki, O'rta Osiyo iqlim sharoitida qurg'oqchilikning ko'p bo'lib turishi, o'troq; dehqonlar xayotida diniy iltijoga kuprok; moyillikni bildirgan va bu jarayon ibodatxonalarning aholi nazdida 5fni va rolini oshishiga olib kelgan. Ilk temir davrining "Qadimgi Baqtriya podsholigi" va "Katta Xorazm" kabi davlat konfederatsiyalari tepasida turgan - kavilar kuchaya borib, davlat hududiy chegaralarini kengaytirishga katta e'tibor beradilar. Nixoyat antik davriga kelganda O'rta Osiyo sharoitida Qadimgi Xorazm davlati (podshu Farasman davri), Yunon-Bakfiya podsholigi, Kushon podsholigi kabi

markazlashgan davlatlar paydo bo'ladiki, bular o'zbek davlatchilipshing navbatdagi bosqich edi. Darxohlik, ana shunday asosda ko'rilgan podshohlardan biri Qadimgi Xorazm podsholigi edi.

Miloddan avvalgi V - IV asrlarda tashkil topib, mustaqil siyosat olib borgan Qadimgi Xorazm podsholigida davlat dini zardushtiylik edi. Bu davrda Qadimgi Xorazm yoeuvi (miloddan avvalgi IV asr) paydo bo'ldi. Yaqingacha fanda uz o'rnini topmagan mamlakatning bosh shaxri Akchaxon kal'a Janubiy Xorazmda, hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanining Qizilqum barxanlari ostida qolib ketgan antik davrining shahar xarobasi bo'lib, bu joyda Qoraqalpog'iston arxeologlari professor V.M. Yagodin rahbarligida Avstraliyaning Sidney universiteta arxeologlari bilan hamkorlikda 1995 yildan beri arxeologik dala tadqiqotlari olib bormoqda. Yodgorlik ikki kismdan, ya'ni ichki va tashqi shaharlardan iborat bo'lib, ularning chor atrofi ikki qatorli maxobatli mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Akchaxon qal'asining ichki shahar qismi 13 gektar bo'lib, uning mudofaa devorlari o'z perimetri bo'ylab xar 22-23 metrda burjlar bilan mustahkamlangan. Shaharga kirish darvozalari chor tomonda bo'lib, ularning soni 4 ta. Shahar markazida baland platforma ustida shaharning bosh otashkasi qad ko'targan. Unda yonib turgan olov shulalari shahar devorlari tashkarisidan, uzoq-uzoqlardan ham ko'rinib turgan. Ichki shaharning shimoliy-g'arbiy burchagidan yuz kolonnali hukmdor saroyi bunyod etilgan bo'lib, hozirgi kunda uning ancha kismi ochib o'rganilmoqda. Hukmdor saroyi juda maxobatli bo'lib qurilgan, uning atrofi ikki qatorli mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Unga kirish darvozasi shahar bosh otashkadasi tomoniga qaratib qurilgan. Ikki qator devor oraligida koridor xosil bo'lib, koridor devorining ichki sirti uch qator qilib ishlangan saroy ayonlarining rangli suratlarni bilan bezatilgan. Suratlarni orasida qadimgi Xorazm davlatining shoxi toj kiygan xodqa savlat to'kib o'tirganligi tasvirlangan. Toj ustida qandaydir muqaddas qush surati tushirilgan. Qazish natijasida topilgan bu ashyoviy dalillar miloddan avvalgi V - IV asrlarda Qadimgi Xorazm davlati shoxlaridan biri Farasman ismli hukmdorning miloddan avvalgi 328 yilda Baqtriya shahriga Iskandar Zulqarnayn xuzuriga borib, uning Qora dengiz bo'ylari tomon xarbiy yurishlarida ittifoqchi sifatida unga yordam berishga tayyor ekanligi to'g'risidagi xabarlarini tasdiqlaydi.

O'rta Osiyoda esa ilk shahar davlatlari Jarqon, Dashli-3, Gonur va Tug'uloq-21

yodgorliklari ham yuqorida ko'rib o'tgan tarixiy jarayonni bosib utgan. Masalan, Jarqo'ton ibodatxonasi qo'xna shaharning bosh ibodatxonasi bo'lgan ekan, uning atrofidagi qishloq jamoalari vis va zantulardan iborat bo'lgan, jamoalar ilk davlatchilikning asosi sifatida shahar-davlatning tarkibiy kismiga kirgan. Jarqo'tonda kuzatilgan bir tepalik bir jamoaga tegishli vis jamoasi bo'lib, uning diniy-dunyoviy boshligi "varezana" Kengashning teng huquqli a'zosi bo'lgan. Jarqo'ton ibodatxonasi quyosh ibodatxonasi ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, ibodatxona bosh koxin varezana kengashining- raisi — boshlig'i, bir vaqtning o'zida mitti shahar-davlatning hukmdori bo'lgan.

"Avesto"da keltirilgan davlatchilik haqidagi g'oyalar, arxeologik materiallarning taxliliga ko'ra, Qadimgi Baqtriya va Marg'iyonaning ilk davlat boshqaruvida, ijtimoiy tuzilishning eng kichik bo'lagi hisoblangan patriarxal oiladan - davlat boshqaruvi darajasigacha amalda bo'lgan. Bu jarayonlar Sopollitepa, Jarqo'ton, Dashli, Gonur, Tug'oloq yodgorliklarida "nmana" - oila, "nmanapati" - oila boshlig'i, "vis" - urug', "vispati" — urug' boshlig'i, "zantu" — qabila, "zantupati" - qabila boshlig'i, "daxyu" - davlat, "daxyupati" — davlat boshlig'i, "Zaratuntraema" — oliy koxin shaklida namoyon bo'lib, ilk davlat ko'rinishidagi ijtimoiy tuzilishni ifoda etsa, ana shu davlatlarni yagona g'oya ostida birlashtiruvchi mafkuraviy kuch "Avesto" g'oyalari bo'lib xizmat qilgan.

Qadimgi Sharq davlatlarida bo'lgani kabi, ana shu davr "huquqiy"- boshqaruv tizimi nazorat qiluvchi tashkilot - ibodatxonalar mafkuraviy markaz vazifasini, ya'ni ilk davlatlarning boshqaruv muassasasi vazifasini bajargan.

1.2. “Avesto”da qo‘llangan ilk davlatchilik atamalari

O‘rta Osiyo hududida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida aniqlangan bronza davri yodgorliklari “Avesto” jamiyatining tuzilishi va uning tarkibi haqida fikr yuritishga keng imkoniyatlar ochdi. Aksariyat olimlarning fikricha, Avestoning qadimgi qismlarida jamiyat haqidagi fikrlar Axmoniylargacha bo‘lgan davr, ya’ni miloddan avvalgi VIII - VII asrlarga to‘g‘ri keladi. Qadimgi Baqtriya va Marg‘iyonada olib borilgan bronza davriga oid arxeologik tadqiqotlar “Avesto” jamiyati munosabatlari VIII - VII asrlardan ham oldinroq shakllana boshlaganligini ko‘rsatmoqda.

Gatlarda Zaratushtaning qo‘shiqlari va oliy xudo Axuramazda va uning ma’budalari alqovi keng talqin etiladi⁹. Tabiiyki, gatlarda ko‘tarilgan g‘oyalar bronza davri jamiyati munosabatlarini Qadimgi Baqtriya va Marg‘iyonada davlat tuzilmalari shakllangunga qadar bo‘lgan davrni yoritgan desak xato bo‘lmaydi. Chunki, Qadimgi Baqtriya va Marg‘iyona bronza davri axolisi zoolatrik diniy karashlaridagi jonivorlar tasviri, gatlarda madx etilgan xudo va ma’budalarning diniy-ruxiy olamdan moddiylikka ko‘chgan ko‘rinishi bo‘lib, “Avesto jamiyati” ning ilk belgilari shakllana boshlaganligidan dalolat beradi¹⁰. Bronza davri Qadimgi Baktriya va Marg‘iyona axolisining ijtimoiy tuzilishi “Avesto”da ilgari surilgan jamiyat bo‘linish tartiblarini uzida mujassam etsada, jamiyat tuzilishi va davlatchilik masalalarini ko‘pchilik olimlar 1 ming yillikning birinchi yarmida shakllangan deb hisoblashadi. Ammo, Bronza davri Sopoli, Dashli, Gonur, Yaz, Tugolov, va Sarazmda o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar “Avesto” jamiyatining so‘nggi eneolit va bronza davridan boshlab shakllana boshlaganligini ko‘rsatmokda.

Darxaqiqat, Avestoning eng qadimgi qismi gatlarda bronza davri jamiyatidagi ijtimoiy munosabatlar aks etganligini arxeologik yodgorliklar tasdiqlamoqda. Masalan, Avesto matnlarida jamiyat a’zolari aloxida uy egasi shahslar - katta chorva egalari, jamiyatning bo‘laklarini idora qiluvchi raxnamolar, katta chorvaga ega Yima haqida gap boradi.

⁹ Авесто / Аскар Маҳкам таржнмаси- Б, 8-34.

¹⁰ Эсоков М. Бронза даврида Қадимги Бактрия ва Марғиёна аҳолисининг зоолатрик диний қарашлари !! Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда. - Тошкент-Самарканд: Фан, 2005. - Б. 92-97,

“Avesto” jamiyatining ijtimoiy tarkibi haqidagi malumotlarga asoslanib bugungi kunda tadqiqotchilar bu ma’lumotlarning arxeologik ob’ektlarda qanchalar o‘z ifodasini topganligi haqida fikr-muloxaza bildirganlar. Masalan, Bugungi kunga qadar “Avesto” jamiyati tuzilishi A.Askarov, B.G.Gafurov, A.C. Sagdullaev, I.N. Pyankov, U. Shaydullaev ishlarida aks etib, ular “Avesto jamiyati” ni to‘rt qatlamga, ya’ni katta patriarxal oila - “nmana”, urug‘ - “vis”, qabila - “zantu”, mamlakat - “daxyu”, eng oliy jamoa — “zaratushtragma”ga bo‘lganlar¹ va bu ijtimoiy tuzilish arxeologik materiallarda bevosita kuzatiladi.

“Avesto” jamiyati to‘rt toifaga - koxinlar, harbiy sarkardalar, chorvadorlar va hunarmandlarga bo‘lingan. Ijtimoiy boshqaruv nmana, vis, zantu, daxyu, daxyupati va daxyusastar ko‘lida bo‘lgan. Jamiyat boshqaruvida xanjamana asosiy rol o‘ynab, oliy sudya — zaratushtratema bo‘lgan. U chiqargan hukm mutlok bo‘lib, rad etishga hech kimning haqi bo‘lmagan¹¹

“Avesto” g‘oyalaridan kelib chikib, jamiyatning eng kichik bo‘lagi – oila “nmana”, oila boshligi - “nmanapati”dir. Oila a‘zolari tarkibiga “vira”, “vaysa” va “pariaytar”lar ham kirgan, ammo ular patriarxal oilaning kichik a‘zolari hisoblangan. Avestoda “qul” atamasiniig ekvivalentiga to‘g‘ri keluvchi so‘z uchramaydi, lekin “vira” harbiy asir tushgan oilaning eng kichik a‘zosi sifatida qul vazifasini bajargan⁷. “Vaysa” va “pariaytar” xam urug‘ga karashli odamlar bo‘lib, oilaning yoki urug‘ning eng kichik a‘zolari hisoblangan. “Pariaytar” tushunchasi Avestoda bir marta uchraydi va u urug‘ning eng kichik a‘zosi hisoblangan.¹²

Zardushtiylik dinining shakllanishi jaryonida oiladan katta, lekin urug‘dan kichik bo‘lgan uyushma - “nafa” vujudga kelgan. Odatda “nafa” 100 ta teng huquqli erkaklardan tashkil toptan bo‘lib, jamoaning faol mulk egalari, tayanchi bo‘lgan. A.G. Perixanyan bu uyushmalarni agnatik guruxlar deb nomlab, Avestoda keltirilgan parchalarga ko‘ra, ular

¹¹ Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда . Т.: “Ўқитувчи”, 2002, 34-бет

¹² Анорбоев А. Ўзбекистонда илк давлатчилик на унинг ўрганилиш тарихидаги баъзи бир муаммолар // Ўзбекистон тарихи. — 2004.— Б. 7.

Zaratushtraning dastlab jamoadan quvilishida muhim rol o‘ynagan¹³.

“Avesto” jamiyatining muhim bir bo‘lagi hisoblangan “nmana”dan yuqori ijtimoiy tarkib bu “Vis” bo‘lib, u bir necha “agnat”lar yoki patriarxal oilalar — “nmana”lardan tashkil toptan. “Avesto”ning nmana termini bir vaktning o‘zida uy ma’nosini xam anglatib, patriarxal oila boshligi - nmanapati deb atalgan. Sopollitepa qal’a-qo‘rg‘onining har bir kvartali ana shu nmananing o‘zidir. Vis — bu faqat qabila yoki qavmni anglatmay, balki butun qishloq jamoasini ham anglatgan. Demak, Sopollitepa qishlog‘i bu Visdir, Uning sardori, ya’ni urug‘ oksoqoli - “vispati” deb nomlangan. Urug‘ning muhim masalalari, urug‘ning ichki muammolari, ishlab chiqarish bilan bog‘liq, diniy kultlar, huquq-tartibot va boshka urug‘lar bilan bo‘ladigan munosabatlar urug‘ning oliy yig‘ini - “vis”da hal kilingan¹⁴. Jamoa a’zolari bir necha xonali turar joylarda istiqomat kilib, ularning ishlab chiqarish bilan bog‘liq hunarmandchilik ob’ektlari manzilgohning ichki qismida joylashgan.

Avesto jamiyatining “vis”dan yuqori pog‘onasi “zantu” bo‘lib, u urug‘lardan tashkil toptan qabilani eslatadi. Avestoda qabila yig‘ini - “xanjaman” shaklida berilib, “Avesto” jamiyatida mamlakat - “daxo” mamlakat hukmdori — “daxyusasti” shaklida keltiriladi¹⁵.

Qadimgi Baktriya jamiyatning ilk bosqichi Sopollitepa yodgorligi “Avesto”ning “vis” ko‘rinishini ifodalasa-da, lekin zardushtiylik dini xali rasman din sifatida o‘rmini topmagan. Shu boisdan Sopollitepada zardushtiylikka oid tegishli sajdagoh yoki patriarxal oilata tegishli ibodatxona qoldiqlari aniqlanmagan. Ammo Sopollitepada zardushtiylikning ba’zi bir ko‘z ilg‘amas izlari bor, ya’nn kul xonali turar- joylarning birida oilaviy otashkadalar chuqurchasi saqlangan bo‘lib, uning tagida oppoq kul qoldig‘i uchraydi. Bu esa Sopollitepaliklar otashparastlar ekanligidan dalolat beradi. Sopollitepa jamiyatining “Avesto” ijtimoiy strukturasi mos keladigan jihatlari, uning uy-joy

¹³ www.avesta.org.ru

¹⁴ www.avesta.org.ru

¹⁵ Исҳоқов М. “Авесто” жамиятида Хоразм воҳаси: шахарсозлик ва давлатчилик негизлари // “Авесто” китоби – тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаси” мавзусидаги конференция материаллари. – Т.2000, 54-бет.

ko‘rinishida aks etib, ya’ni Sopollitepa qal’a-qo‘rg‘oni Varni eslatadi. Var esa Markaziy Osiyo shaharsozlik madaniyatida protoshaharni anglatib, “Avesto” jamiyatining Zaratushtra yashagan davrga qadar bo‘lgan davri, ya’ni protozardushtiylik davri hisoblanadi¹⁶, Sopollitepa misolida afsonaviy shoh Yima qurgan dastlabki qal’a-qo‘rg‘on - vara moddiy madaniyatda o‘z aksini topdi. Avestoda keltirilishicha, Axuramazda Zaratushtraga to‘rt tomoni bir ot chopiq uzunlikdagi devorlardan iborat, muqaddas olovni, itlarni, kushlarni, oilalarni va chorvani saqlovchi qal’a-qo‘rg‘on - Varani qurishni buyurdi². Qadimgi Baktriya va Marg‘iyonaning bronza davri yodgorliklari Sopollitepa, Jarqo‘ton, Dashli, Gonur, Tugoloq bevosita Varani eslatib turibdi. Ushbu yodgorliklarning barchasi murakkab mudofaa inshootlari bilan o‘rab olingan, ilk shahar elementlarining barcha ko‘rinishlarini o‘zida aks ettirgan “Avesto” g‘oyalarini ifodalaydi.

Darhaqiqat, Sopollitepa qal’a-qo‘rg‘oni bilan “Avesto” Vari o‘rtasida ichki qurilish va rejalashtirilishda umumiy o‘xshashliklar bor. Avesto Vari odatda urug‘ jamoalari, aniqrog‘i bir necha katta patriarxal oilalar (nmanalar) karorgohi bo‘lgan. Shunga muvofiq, “Avesto”ning qadimgi ijtimoiy tarkibi va “Avesto” jamiyatining iqtisodi asosan Sopollitepa 8 ta katta patriarxal oilalar - nmanalardan tashkil topgan Visning qarorgohidir, ya’ni katta patriarxal urug‘lar uyushmasining moddiy madaniyatda saqlangai aksidir¹⁷.

Sopollitepada patriarxal urug‘chilik ananalari to‘la saqlangan bo‘lib, uning patriarxal katta oilalari tepasida nmanapati, ularni birlashtirgan qishloq jamoasi tepasida esa urug‘ oqsoqoli Vispati turgan. Demak, kvartal yo‘lboshchisi katta oilaning rahbari bo‘lgan bo‘lsa, butun Sopollitepa jamoalari sardori vispati nazoratida bo‘lgan¹⁸.

“Avesto” jamiyati ijtimoiy tarkibi mulkiy tabaqalanish nuqtai nazaridan qaraganda Sopollitepa aholisining ijtimoiy tarkibidan farq qiladi. Chunki, “Avesto”da to‘g‘ridan-to‘g‘ri jamiyatning ijtimoiy tarkibi haqida gapirilib, boylik chorvaning ko‘pligi bilan izohlanadi. Taniqli avestoshunos V.A. Livshin, Avestoning qadimgi buyumlarida “Avesto” jamiyatining asosiy boyligi sifatida chorvani ko‘rsatib, Zaratushtraga uning

¹⁶ Аскарлов А. Сополлитепа. – Т.:”Фан”, 1973, 71-6.

¹⁷ Аскарлов А. Сополлитепа. – Т.:”Фан”, 1973, 98-6

¹⁸ Аскарлов А. Сополлитепа. – Т.:”Фан”, 1973, 115-6 .

izdoshlari sovg'a sifatida tuyalar hadya qilishganini ta'kidlaydi¹⁹. Avesto matnlarining lingvistik tahliliga ko'ra, sahroyi otashparastlar ma'budalaridai keng yaylovlarga ega bo'lishni, yaylovlarga osmondan yomg'ir yuborishni, ko'plab otlar va ho'kizlar ato etishni so'raydilar. Ma'budalarga atab otlar, novvos va qo'ylarni qurbonlik qiladilar. Biroq Sopollitepa axolisi o'troq dehqonchilik jamoasi bo'lganligidan ularning ustidan chorvador jamoalar kabi boshliq turmagan. Shuning uchun ham, Sopollitepa axolisi ijtimoiy tarkibini o'rganish chog'ida axolisining u yoki bu tabaqaga mansubligi haqida materiallar uchramaydi²⁰.

Lekin, Sopolli madaniyatining keyingi davrlarida, jumladan, Jarqo'ton bosqichidan oila jamoalarida iqtisodiy-xo'jalik tarmoqlarining rivojlanishi bilan mulkiy tabaqalanish jarayoni boshlanadi. Avesto va Rigveda g'oyalari bir davrda, ya'ni miloddan avvalgi 1500-1200 yillardan shakllana boshlaydi²¹. Hindiston hududlarida hinduiylikning muqaddas kitobi Veda ta'limotining eng qadimgi qismini tashkil etuvchi Rigveda, Yajurveda, Somaveda ta'limotiga asos solinishi munosabati bilan ularning- dafn marosimiga "sati"²² odati ham kirib boradi²³.

QadimgiBaktriya va Marg'iyonaning ijtimoiy tarkibi va tuzilishi Avesto va Rigvedada keltirilgan g'oyalarni ifodalab, Qadimgi Hindistonda uchta asosiy ijtimoiy tabaqa: koxinlar, jangchilar, dehqonlar bo'lgan. "Sati" odati yuqori tabaqa vakillari uchun majburiy bo'lgan.

Xuddi shunday jamiyatning ijtimoiy tarkibi Avestoda ham aksini topgan, ya'ni avesto jamiyatining a'zolari ham turli tabaqalardan; koxinlar, jangchilar, dexqonlar va chorvadorlardan iborat bo'lgan. Jarqo'ton nekropolida esa tabaqalanish holati ba'zi bir qabrlarda ko'zga tashlanadi. Bu yerda yana bir jamoa hunarmandlar ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutganligi kuzatiladi Patriarxal oilalarda oilaning kichik a'zolari sifatida siyosiy huquqi yo'k tabaqa - "qullar" paydo bo'la boshlaydi. "Qulchilik" patriarxal oilaviy xarakterga ega bo'lib, "qullar" oilaning kichik a'zosi sifatida oila yumushlarini bajargan.

¹⁹ Аскарлов А. Сополлитепа. – Т.: "Фан", 1973, 71-б.

²⁰ Аскарлов А. Сапаллитепа. - Т.: Фан. 1973. 59-б.

²¹ www.avesta.org.ru

²² www.avesta.org.ru

²³ www.avesta.org.ru

Bronza davri jamiyati tarkibi Avestoda ilgari surilayotgan ijtimoiy bo‘linishni aks ettirsada, “Avesto” matnlari shakllangan davr va bronza davri Qadimgi Baktriya yodgorliklari orasida ancha uzilish mavjud. Shunga qaramasdan, avesto g‘oyalarining dastlabki asoslari aynan shu madaniyatlar asosidan kelib chiqqan bo‘lishi tarixiy haqiqatga to‘g‘ri keladi. Axolining ijtimoiy tarkibi avestodagi g‘oyalarga ko‘ra, chorva bilan shug‘ullangan O‘zbekiston hududidagi eng qadimgi ilk shahardir. Uning 100 gektardan kam bulmagan hududiy doirasida o‘nlab qal’a-qo‘rg‘onlar, ibodatxona, hunarmandchilik komplekslari va turar-joy massivlari qad ko‘targan. Ana shu qal’a-qo‘rg‘onlar xarobalarining har biri urug‘ jamoalarining manzillari bo‘lib, ularning har biri aynan nmanalardan tashkil toptan vislardir²⁴. Shuningdek, “vis”lar birgalikda “Avestodagi zantuni eslatadi.

Avestoning qadimgi qismida aks ettan davlatchilik atamasining yana bir ko‘rinishi - “zantu” bo‘lib, u qabilaviy uyushmani anglatadi. Qabila uyushmasi bir necha vislarning uyushmasi bo‘lib, bir necha urug‘ jamoalari ustidan nazorat kilib turuvchi boshqaruv organi hisoblangan. Jarqo‘ton hududida joylashgan ark va shahar ibodatxonasi ushbu ilk shahar-davlatning boshqaruv organi bo‘lib, boshqaruv tizimida diniy rahnamolarning roli katta bo‘lgan. Qo‘shnichilik jamoasi zantuni boshqarishda diniy-mafkuraviy jihatdan Jarqo‘ton shahar ibodatxonasi muhim rol o‘ynagan. Har bir urug‘ga yuqori obro‘ga ega kishining ustasi bo‘lgan, urug‘da yuqori mavqeni egallagan kishilar raxnamolik qilgan. Har bir “zantupati” o‘z qabila uyushmasida xo‘jalik va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni xal etgan. Qabilaviy jamoa boshqaruvi jamoa ishlab chiqarishida, iqtisodiy sohani mustahkamlashda va boshqaruvda asosiy rol o‘ynagan. Qadimgi Baktriya va Marg‘iyona hududlaridagi axolining qabilaviy uyushmalari o‘ziga xos tarzda shakllanib, qabila alohida urug‘ jamoalari “vis”lardan, ^kvis”lar esa 5 tadan 15 tagacha oilalardan iborat bo‘lgan. Har bir qabila jamoalari alohida yirik markaziy qarorgohdan iborat turar joylarga ega bo‘lgan. Ular Jarqo‘ton, Gonur, Dashli-Z, Tugoloq singari mudofaa devorlari bilan mustahkamlangan markaziy qal’a-qo‘rg‘onda istiqomat qilganlar. Ularning hududiy

²⁴Анорбоев А. Ўзбекистонда илк давлатчилик на унинг ўрганилиш тарихидаги баъзи бир муаммолар // Ўзбекистон тарихи. — 2004.— Б. 7.

chegaralari, ya'ni shahar-davlatlarning chegarasi daryoning quyi belgilanganligi sababli, bunday holat o'troq dehqonchilik madaniyati materiallarida kuzatilmaydi. Faqatgina ba'zi bir qabrlardagina bronza davri jamiyatida jamoaning nufuzli kishilari, diniy-dunyoviy rahnamolar mavjud ekanligini ko'rsatuvchi ba'zi bir ashyoviy dalillar uchraydi, xolos.

Patriarxal oilalar manzilgoxning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynab, nafaqat O'rta Osiyo, balki qadimgi Sharq davlatchilik tarixida xam muhim o'rin tutgan. Sopollitepa, Dashli yodgorliklaridagi oila jamoalari aloxida urug'ga ajratilgan kvartallarda istiqomat qilib, bu jamiyat tarkibi Sopollitepa davrida iqtisodiy jihatdan bir xil ijtimoiy tabakalardan tashkil toptan. Ularning asosiy mashg'uloti dehqonchilik, turli tarmoqli hunarmandchilik va xonaki chorvachilik maxsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. A.S. Sagdullaevning fikricha, Vis tarkibiga 15 tadan kam bo'lmagan oilalar kirgan²⁵. Lekin, Qadimgi Sharq sivilizatsiyaga xos bo'lgan taraqqiyotda, janubiy O'zbekiston sivilizatsiyasining shakllanishiga asos bo'lgan dastlabki zardushtiylik diniga asoslangan jamiyat munosabatlari aynan Sopollitepadan boshlanadi, desak xato qilmaymiz. Sopollitepa urug' jamoasi Visni tashkil etib, u keyingi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda yangi tipdagi jamoani, ya'ni qadimgi Sharq sivilizatsiyasining yangi o'chog'ida protoshahardan ilk shahar elementlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu jarayonlar Sopolli madaniyatining navbatdagi bosqichi Jarqo'tonda yuz berdi.

Avesto jamiyatining ijtimoiy tarkibi - nmana, vis, zantu, daxyularga o'xshash qadimgi jamiyatlar ijtimoiy tarkibi boshqa xalqlarda ham uchraydi. Masalan, Nmana Gerodot asarlarida keltirilgan "oikia" - katta patriarxal oilaga to'g'ri keladi. Agar Sopollitepa protoshahar bo'lsa, xronologik jihatdan undan keyin tarkib topgan Jarqo'ton maskani havzalarida tashkil toptan oazislar, ular hududidan o'tgan sug'orish inshootlari — kanallar va ariqlar orqali belgilangan.

"Avesto" davri jamoasi uch qismdan: - "ratayshtar", "atrivan" va "vastrofshuyant"dan iborat bo'lgan²⁶. I.N. Pyaikovning fikriga ko'ra, "ratayshtar"lar va "sastarlar" - zodagon tabaqa va harbiylar arklarda, "atrivan"lar - qaram dehqonlar arksiz

²⁵Сагдуллаев А.С, Усадьбы древней Бактрик. - Т.: Фан, 1987. - С. 70,

²⁶ Шайдуллаев Ш. "Авесто" ва моддий маданият. - Б. 4.

qo'rg'onlarda, "vastro-fshuyant"lar ozod dehqonlar esa arksiz qishloqlarda istiqomat qilganlar²⁷. Demak, jamiyatining yuqori tabaqa vakillari "sastarlar", "ratayshtar"lar, "azat"lar Jarqo'ton, Gonur, Tugolok, Dashlining mustahkam qal'a-qo'rg'onli markaziy qismida, "vaysa"lar, "vira"lar, "pariaytar"lar, shahriston qismidagi turar-joylarda, "vastro-fshuyant"lar esa arki a'lo atrofidagi kvartallarda istiqomat qilganlar.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida Qadimgi Baktriya va Marg'iyona Hududlarida rivojlangan bronza davridan boshlab Jarqo'ton, Tugolok, Dashli-2 singari murakkab mudofaa devorlari bilan o'pab olingan ark va shahriston, ilk davlatlarning mafkuraviy markazi darajasiga ko'tarilgan ibodatxonalarning vujudga kelishi davlatchilik munosabatlarini yangi bosqichga ko'tardi. Axoli istiqomat qiluvchi hududlarning harbiy-diniy- dunyoviy markazlari - qal'a-qo'rg'onlar vujudga keladi. Bu qal'a- qo'rg'onlarning har biri mikrooazislarda tashkil topgan qadimgi ilk shahar- davlatlar bo'lib, ular tepasida Avestoda eslatilgan daxyupatilar²⁸ — viloyat hukmdorlari va bir vaqtning o'zida harbiy boshliq - "Sastar"lar turishgan²⁹. "Daxyu" tushunchasi bronza davrida veda "davlati" tushunchasini uzida mujassamlashtirib, ma'lum bir huquqiy kuchga, ya'ni qonun-qoidalariga ega bo'lgan. Darxaqiqat, bronza davri jamiyatida oqsoqollar va ma'lum oilalardan chiqqan yuqori tabaqali sardorlar tomonidan tuzilgan yoki kelishib olingan "huquqiy", ya'ni o'sha davr uchun xos bo'lgan diniy tartib-qoidalar o'rnatilgan bo'lib, unga jamiyat a'zolarining barchasi rioya QILISHI shart bo'lgan.

Bronza davri yodgorligi Jarqo'ton Qadimgi Baktriyaning ilk poytaxti bo'lib, alohida viloyat boshqaruvi markazi hisoblangan va butun Baktriya hududlari va atrof hududlarda joylashgan aholi uchun diniy-dunyoviy markaz sifatida xizmat ko'rsatgan. Bu yerdan topilgan hukmdor saroyi, ibodatxona nafaqat Jarqo'ton ilk shahar-davlatini, balki butun shimoliy Baktriya vohasi uchun xam markaz sifatida xizmat qilgan bo'lishi mumkin. Bronza davri Shimoliy Baktriya yodgorliklari ichida Jarqo'tonning yirik mafkuraviy markaz ekanligi haqida fikr-mulohadalarimizni shu bugungi kunning arxeologik materiallari tasdiqlab turibdi. Bu yodgorliklar Axmoniylarga qadar Avestoda

²⁷Шайдуллаев Ш "Авесто" ва моддий маданият... - Б. 5-6.

²⁸Исхоков М. Авесто, Яшт китоби. - Т.; Шарк, 2001. - Б. 20.

²⁹Сдгдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда . Т.: "Ўқитувчи", 2002, 72-бет

eslatilgan davlatchilik atamalarining tuman darajasidagi tushunchasiga to‘g‘ri keladi. Ammo Shimoliy Baktriya hududlarida Jarqo‘tondan yirikroq va ijtimoiy tarkibi bo‘yicha mukammalroq yodgorlikning yo‘qligi hisobga olinsa, Jarqo‘ton Shimoliy Baktriyaning viloyati darajasidagi daxyu boshqaruv shakliga to‘g‘ri keladi.

Ilk temir davri yodgorliklari misolida, A. S. Sagdullaevning fikricha, ahmononiylargacha bo‘lgan davrda Avestodagi davlatchilik g‘oyalarining kuyidagi shakllari amal qilgan³⁰:

Mumkin bo‘lgan boshqaruv sistemasi		Avestodagi ko‘rinishi
Kichik oila	kichik oila boshlig‘i	?
Katta oila	patriarxal oila boshlig‘i	Nmanapati
Jamoa ittifoqi	kishlok oqsoqoli	vispati
qo‘shni jamoa	oqsoqollar yig‘ini	xanjamana
Qishloq va shahar jamoasi	Xalq yig‘ini oqsoqollar kengashi	xanjamana
	tuman xokimi	daxyupati
	viloyat xokimi	sastar

Ushbu sxemada keltirilgan boshqaruv organlari fanda Axmoniylargacha bo‘lgan davr, yani miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmiga xos bo‘lgan ma‘muriy bo‘linish bo‘lib, xuddi shunday jamiyat boshqaruv shakli bronza davrida Tugoloq, Gonur, Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorliklari misolida o‘z aksini topgan. Bu yodgorliklarda ularning asosiy bo‘g‘inlari mavjud bo‘lib, boshqaruv shakli dastlabki patriarxal oilaviy munosabatlardan, davlatchilik darajasigacha ko‘tarilgan jarayoni kuzatiladi.

“Avesto”da keltirilgan jamiyat tarkibi, bronza davri Qadimgi Baqtriya va Marg‘iyona yodgorliklarida o‘z ifodasini topib, patriarxal oilaviy boshqaruv munosabatlarining daxyu darajasidagi davlat boshqaruvining arxeologik materiallarda kuzatilishi o‘zbek davlatchiligini dastlab bronza davridan boshlanganligini ko‘rsatadi.

³⁰ Исҳоқов М. “Авесто” жамиятида Хоразм воҳаси: шаҳарсозлик ва давлатчилик негизлари // “Авесто” китоби - тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаси” мавзусидаги конференция материаллари. – Т., 2000, 54-бет

II BOB. “AVESTO”DAGI TA’LIMIY-AXLOQIY QARASHLAR

2.2. “Avesto”da ta’limiy –pedagogik g‘oyalarning aks etishi

Ma’lumki, eramizdan oldingi 7-asrning oxiri 6-asrning boshlarida Movoraunnaxr va Xuroson xalqlari yashagan hududlarda qo’hna sivilizatsiyaning ilk kurtaklari paydo bo’lib, insoniyat hayot kechirishi, taraqqiy qilishi va rivojlanishining asosiy omili sifatida o’zi tomonidan o’rganilgan, mustahkamlangan bilimlar, malakalar va ko’nikmalarni keyingi avlodga yetkazish uchun ta’lim va tarbiyaning yetakchi bo’g’in sifatida zarurligini tushunib yetgan. Qo’hna sarchashmalar va «Avesto»dagi dalillar shuni ko’rsatadiki «ta’lim jarayonida kundalik hayot uchun zarur bo’ladigan barcha bilimlar o’qitilgan, hunarlar o’rgatilgan.

«Avesto»dagi axloqiy-ma’naviy tarbiyaning asosini poktiynat, halol, qalban sof, ma’nan yetuk avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish masalasi tashkil qiladi. Bu masalani amalga oshirish esa ustoz va murabbiylar zimmasiga yuklatilgan.

«Avesto»da ustozlar haqida so’z ketganda, eng avvalo, barcha ustozlarning ustozlari, mutlaq iloh Axura Mazda madh etiladi: «-sen ashah-Haqiqat so’zi va Ezgu niyat ta’limoti bilan, senga payvandlik va uns bog’lagan zotlarga ilk murabbiy, ustozsan»³¹, yoki «-sen haqiqatda, butun mavjudotga Ashah-Haqiqatning manfaati va durujning ziyonkorligi xususida saboq bergansan, tarbiya qilgansan»³². Bulardan ko’rinib turibdiki, Yazdoni pok olamni, dunyodagi barcha bilimlarni yaratuvchi, Zardusht esa bu bilimlarni insonlarga yetkazib ularni hidoyatga boshlovchi hisoblanadi: «-Mazda ta’lim berdi va Zardusht xabar keltirdi»³³, yoki «-Mazda ta’lim berib, Zardusht so’ylagan radlarga olqishlar, xushnudlik va ofarinlar bo’lsin».³⁴

Gohlar va Yashtlarda Zardusht Ahura Mazda farmonini bajaruvchi, insonlarni halollikka, pok axloqqa, komillikka undaguvchi ustozlar rahnamosi sifatida ko’rsatiladi. O’z navbatida Zardusht ta’limotini kelajak avlodga yetkazish,

³¹ «Avesto». Gohlar. Yasna. 51-xot. A.Mahkam tarjimasi. -T.: Sharq. 2001. 29-6

³² «Avesto». Gohlar. Yasna. 49-xot. A.Mahkam tarjimasi. -T.: Sharq. 2001. 27-6

³³ «Avesto». Gohlar. Yasna. 3-xot. A.Mahkam tarjimasi. -T.: Sharq. 2001. 40-6

³⁴ «Avesto». Gohlar. Yasna. 4-xot. A.Mahkam tarjimasi. -T.: Sharq. 2001. 43-6

dunyoga ezgulik nurlarini taratish, insoniyatni yuksak axloqiy mezonlar asosida barkamollashtirish jamiyatdagi ustozlar va muallimlar zimmasiga yuklatilgan. Ustoz-muallimlar Yazdon farzlarini diliga jo aylagan, o'z faoliyatida qo'llagan, vatanining gullab yashnashi, farovonligi yo'lida halol mehnat qilib, uni dushmanlardan himoya qila oladigan, jasur, pok, bilimdon shogirdlarni tarbiyalashlari farz bo'lgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi» qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosini har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash masalasi tashkil qilar ekan, ajdodlarimizning 3000 yil ilgari bu a'molga yetishning yo'llari, qoidalarini ishlab chiqib, davlat va jamiyat tuzilishining negiziga asos qilib qo'yganlari tahsinga sazavordir: «-menga barkamol va dinogoh, vatansevar va anjumanoro, ahil, ezgu andishali, zulmatdan, tanglikdan qutqaruvchi farzandlar bag'ishla. Toki ular manzil, shahar, o'lka va uning nom hamda ovozasini ko'tarsinlar»³⁵

Yozma yodgorliklarda zardushtiylik dinining farz va sunnatlari bayoni bilan bir qatorda chorvani ko'paytirib, bog'lar yaratish (agranomiya), cho'lga suv chiqazib, yerning sho'rini yuvib, zaxini qochirib ishlov berish (irrigatsiya), osmon jismlari, ularning harakatini kuzatish va shu asosda kun, yil, vaqt hisobini olib borish (astronomiya), daryolar, tog'lar, viloyatlar, kishvarlar tasnifi (geografiya), tabiatni, atrof-muhitni muhofoza qilish (ekologiya, gigiena), yurtni, xalqni, chorvani dushmanlar, qaroqchilar va devlardan himoya qilish (harbiy bilim), oilaning tuzilishi, oila va jamiyatda erkak-ayol ma'suliyatlari, vazifalari, burchlari (axloqshunoslik, sotsiologiya) kabi bilimlar majmuasi yuksak mahorat bilan bayon qilinganligi obidaning ulkan adabiy-ma'rifiy, qomusiy qimmatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga «Avesto» va pandnomalarda ushbu bilimlarni umumlashtirib, boyitib kelajak avlodga yetkazish ustozlar va muallimlar uchun yuksak ma'suliyat, burch ekanligi alohida uqtirilgan.. Ayni paytda shu bilimlarni maktab, madrasalarda o'qitish yo'nalishlari, usullari va uslublarini ishlab chiqish (pedagogika, didaktika) dono muallimlar, ustozlar vazifasi hisoblangan.

³⁵ «Авесто». Гоҳлар. Ясна. 62-хот. А.Маҳкам таржимаси. -Т.: Шарк. 2001. 90-б

Muqqadas kitobda hayotning, taraqqiyotning asosida yaxshilik va yomonlik, nur va zulmat, haqiqat va yolg'on, go'zallik va xunuklik, adolat va nohaqlik kabi hamisha o'zaro kurashda bo'lgan, bir biriga zid tushunchalar va g'oyalarning o'zaro kurashi talqin qilingan bo'lib, bularning mantiqiy davomi sifatida yaxshi, dono ustoz va murabbiylar, nodon va johil ustoz, murabbiylarga qarshi qo'yib tasvirlangan. Bunda muallim va mudarrislar o'z ilmini qanchalik bilishi, kasbiga munosabati, fidoiyligi, o'z burchiga sadoqatiga qarab yaxshi va yomon ustozlarga ajratilgan. «-Ravshannazar ustoz tolibni ogoh etadi»³⁶ ya'ni, yaxshi ustoz shogirdlarini tangrini tanimaslik, kufr, insofsizlik, g'arazgo'ylik, nohaqlik, ishyoqmaslik, axloqsizlik, hunarsizlik va bilimsizlik kabi illatlardan voz kechishga undab, tangriga ishonib uni doim madh etish, haqgo'ylik, mehribonlik, poklik, hallolik, insof va diyonatlilik, adolatlilik, insonparvarlik kabi xislatlarni namoyon etishiga ko'mak berishni o'zining muqqadas burchi hisoblab, shu yo'lda xizmat qilgan. Ustoz haqida : «-haqiqat nurlari ostida komronlik va shodmonlik manziliga eltuvchidir, sen bu yo'lni ezgulikdan ogoh zotlar uchun bino aylading»³⁷ deb kuylanishi tahsinga sazovordir.

Ayni vaqtda imonini va ilmini dev va durujlarga sotgan yomon ustozlar qattiq tanqid ostiga olinib qoralanadi. «Yomon tarbiyachi o'z ta'limi bilan ilohiy so'zlarni teskari qiladi va tiriklik idrokini xarob aylaydi. Haqiqatda, u odamlarni rostlikning bebaho sarmoyasidan va ezgu niyatdan bahrasiz aylaydi»³⁸, yoki «Ey, ilm olmoq niyatida uzoq-yaqindan kelgan insonlar! Alhol barchangiz quloq solingiz, mening oshkora so'zlarimni tinglangiz va yodingizda mahkam saqlangiz : Yomon tarbiyachi hech qachon hayotingizni tubanlashtirmasin, devparast durvandlar avraguvchi til bilan sizlarni gumroh qilmasin»³⁹. Yaxshilik, ezgulik (Axura Mazda) doimo yomonlik va johillik (Ahriman) ustidan g'alaba qozonganidek dono ustoz va murabbiylar ta'limoti yomon ustozlar ta'limidan

³⁶ «Авесто». Ясна. 31-хот. А.Маҳкам таржимаси. -Т.: Шарқ. 2001. 12-б

³⁷ «Авесто». Гоҳлар. 34-хот.13-банд. А.Маҳкам таржимаси.-Т.:Шарқ.2001. 17-б

³⁸ «Авесто». Ясна. 32-хот. 9-банд.А.Маҳкам таржимаси.-Т.:Шарқ.2001

³⁹ «Авесто». Ясна. 45-хот.А.Маҳкам таржимаси.-Т.:Шарқ.2001. 22-б

ustun turishi, nihoyada ezgu amallarni o'z qalbi va ongiga jo aylagan tolib va shogirdlarning voyaga yetkazilishi bilan yakunlanishiga olib keladi.

«Avestoda»gi ustoz va muallimlar ta'rifi, ustoz-shogird munosobatlari talqini hozirgi kunda ham o'z ahamiyati va qimmatini yo'qotgani yo'q. Shu asnoda bu g'oya va qarashlarni ta'lim jarayoni, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya yo'nalishiga qo'llash yuksak samara berishi aniq va ravshandir. Bu esa o'z navbatida ajdodlarimizning boy madaniy-ma'naviy-ma'rifiy meroslarini yanada chuqurroq, maxsus o'rganish va tahlil etishni talab qiladi.

Bundaxishn (olamning yaratilishi) – pahlaviy adabiyotlar ichida eng salmoqli asarlardan biri va «Avesto»dagi yo'qotib yuborilgan **Damdad-nask** ning tafsiri hisoblanib, bizgacha 2 xil qisqa (hindcha) va to'liq (eroncha) ko'rinishda yetib kelgan. Bundaxishnning eng qo'hna nusxalaridan biri 1397 yilda Peshotan Ram Kamdin tomonidan ko'chirilib tartib berilgan. Hozirgi kunda barcha qadimgi Eron tarixi va zardushtiylik masalalari bilan shug'ullanadigan tadqiqotchilar Rossiya fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg arxivida I 170/6 inventar raqami, Londondagi India Offis kutubxonasi va Zardushtiylarning hozirgi kundagi markazlaridan biri hisoblangan Naosari shahridagi dastur Maxyyar (Mexrdji) Ran kutubxonalarida saqlanayotgan Bundaxishn va boshqa bir qancha paxlaviy matnlarni o'zida mujassamlashtirgan, dastur Shopur Shaxrobji tomonidan 1873 yilda tartib berilgan qo'lyozma nusxasidan foydalanishadi. Dastur Shopur Shaxrobjining bobokaloni mashhur kohin, dastur Maxyyor (Mexrdji) Ran 1579-1591 yillarda Boburiylar saroyida bo'lib Avesto, Bundaxishn va boshqa pandnomalar asosida shoh Akbarni zardushtiylik ta'limoti bilan tanishtirgani to'g'risida ham ma'lumotlar saqlangan.

Bundaxishnning qisqa (hindcha) talqini o'ttiz to'rt fasldan iborat bo'lib uning asosiy mazumunini olamning yaratilishi, yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, tabiatda uchraydigan hodisalar va ularning xususiyatlari masalalari tashkil etadi. Shuningdek, osmon jismlari, sayyoralar, vaqt hisobi, viloyatlarni boshqarish, tarixiy shaxslar va bir qator turli jabhalar, jumladan, boshqa yozma yodgorliklarda uchramaydigan qator ilmiy–axloqiy fikrlar, ajdodlarimizning

ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari aks etgan. «Bundaxishn»ning «Donishmandning o'z farzandiga nasihati», «Ustozning birinchi sinf o'quvchisiga pandi» kabi qismlarida yosh avlod tarbiyasi, kamoloti oldida ota-ona, jamoa, qo'ni qo'shni, muallimlarning burch hamda vazifalari, o'quvchilarning maktabda, ko'chada, ustoz, ota-ona, keksalar, kattalar huzurida o'zini tutishi, qoidayu-yo'sinlari birma-bir sanalib o'tilib, unga rioya qilish mezonlari ko'rsatilgan.

«Bundaxishn»da ta'lim-tarbiya jarayonida insonda faqatgina yaxshilik fazilatlari shakllanib, aql va zakovat hosil bo'lishi lozimligi uqtiriladi va shu jarayonga rahnamolik qiluvchi ilohalar birma-bir sanab o'tiladi. Jumladan: **Rashn** («Avesto»da Rashnu)- porloqlik va parhezkorlik ma'nolarini anglatib, hakamlik ilohasi sanaladi va mazdoparastlik dinida muhim o'rin tutadi. U Ahura Mazda va Sipandormazning o'g'loni, iloha Ashaning, Surush, Mehr va ma'buda Dinning birodari. Bu ilohning nomiga ko'p o'rinlarda «rost» yoxud «barchadan rost, to'g'ri, haq» sifatlari ilova qilib aytiladi. «Bundaxishn»da yozilishicha Rashn adolat hakami, rostlik, haq va haqqoniyat miynusi sifatida moddiy olamni yomonlik, yolg'on va razolat, ablahlik va jaholatdan qutqarmoq uchun bu qabohatlarning asosiy sabablari bo'lmish devlarga qarshi kurashadi va ularni nest-nobud aylaydi. Shuningdek, «odamlarni rostlikning bebaho sarmoyasidan avraguvchi» yomon tarbiyachi va ustozlarni oxirat kunida imtihon qiladi va ularning gunohlarini tarozida o'lchaydi. Soch tolasi qadar xatolik yoxud badkirdorlik uning faoliyatiga yotdir. Ta'lim-tarbiya jarayoniga rahnamolik qiluvchi ilohlardan biri **Arshtod**dir. Arshtod zardushtiylik dinidagi faol ilohalardan biri bo'lib, rostlik, to'g'rilik ma'nolarini ifoda etadi va «jahonparvar», «dunyoni kengaytiruvchi» kabi sifatlar bilan ta'riflanadi.«Bundaxishn»ning ta'rif berishicha, iloha Arshtodning xayrli amallari boshqa ilohalar bilan hamkorlikda oxirat kunida odamlarning yaxshi-yomon amallarining hisobini olish, adolatli hakam vazifasini bajarib, oqni oq, qorani qora demoqdir. Arshtod iloha Rashn bilan yor va hamkordir. Zero, rostlik va adolat hakamlik tushunchasi bilan egizdir. Ta'lim-tarbiya jarayonida Arshtod yaxshi va ezgulik urug'larini sepuvchi tarbiyachi va ustozlarga rahnamolik va g'amxo'rlik qiladi.

«**Dadestoni menogi xrad**» - (Aql ruhi mushohadalari) pahlaviy adabiyotlari ichidagi eng qimmatli asarlardan biri hisoblanadi. «Dadestoni menogi xrad» bir necha marta (Andreas, 1882; Sanjana, 1895; Codex, 1936) nashr qilinib ingliz, gujarat, fors va rus tillariga tarjima qilingan. Bundan tashqari West, 1885; Antia, 1909; Taffazoli, 1975, 1985; Chunakova O, 1997, F.Shpigel, D. Tavadia, X.Nyuberg, M.Mole, R.Sener, M.Boys va boshqa sharqshunoslar o'z ilmiy tadqiqotlari asar matnidan namunalar keltirishgan. Yodgorlikning yaratilish vaqti tarixi, davri hamda va muallifi haqida ma'lumotlar yo'q hisobi. Ko'pgina Tadqiqotchilar asar muallifining «Avesto» dan juda yaxshi xabardor, mazdoparastlik e'tiqodiga sodiq zardushtiy bo'lganligini e'tirof etishadi. Bunga misol sifatida matnda 20 marotaba «Avesto» tilga olinganligi va 100 dan ziyod «Avesto» dan iqtibos keltirilganligi ta'kidlash lozim. Asarning yaratilish davri Sosoniylar hukmronligining oxirgi davriga to'g'ri kelishi ham taxmin qilinadi. Asarning asosiy syujetini **aql ruhi** va **donishmand** orasidagi savol –javob, musohoba tashkil etadi. Aql ruhi esa o'z navbatida moddiylashtirilgan tushuncha sifatida talqin qilinadi. Donishmand unga jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalar, udumlar, urf-odatlar, belgilangan tartibga rioya qilinishi va shu jarayonda insonning hatti-harakati bilan bog'liq zardushtiylik ta'limotining mohiyatini anglashga qaratilgan 62 ta savol beradi. Savol-javoblar zardushtiylik ta'limotiga asoslangan dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, uning asosini doimiy ravishda davom etadigan yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi azaliy kurash masalasi tashkil etadi. Inson esa o'z aqli, tafakkuri yordamida yaxshilik va yomonlik yo'llaridan birini tanlab o'z taqdirini belgilaydi.

Insonning to'g'ri tanlovi uning jamiyat va ijtimoiy hayotdagi hatti-harakatlarini ham belgilab beradi. Bu o'z navbatida dinning asosiy ahkomlarini bilish va tushunish, uning farzlari, sunnatlariga rioya qilish, butparastlarga nisbatan kurash, shuningdek «ezgu fikr», «ezgu so'z» va «ezgu amal» triadasiga so'zsiz amal qilish holatlarida namoyon bo'ladi.

Zardushtiylikda tafakkur va aql tushunchasi (xirad) ga alohida e'tibor beriladi. Oy, yer va barcha yaratilgan xilqat va mavjudotlar **aql-tafakkur**

tomonidan himoyalaniib, boshqariladi. Olamdagi qonunlar u tomonidan belgilanadi. Ezgu ishlar va oliyjanob hatti-harakatlar aql-tafakkur orqali amalga oshiriladi, aqlli va mulohozakor insonga kam zarar yetadi, aql-tafakkurga ega bo'lgan inson badavlatdir, aql-tafakkur har qanday boyligdan a'lodir va uni sotib olib bo'lmaydi. Aql-tafakkur barcha sohalarda bilim, tajriba, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, yaxshi hayot kechirish, xursandchilik, shon-sharafga ega bo'lishga ko'maklashib, o'limdan so'ng jannatga tushishga yordam beradi

Inson xarakterida shakllanishi lozim bo'lgan asosiy xususiyatlar– bu oqko'ngillik, saxiylik, ezgulik , oliyjanoblik, rostgo'ylik, tirishqoqlik, harakatchanlik, o'ziga ishonch va minnatdorchilikdir. «Dadestone menogi xrad»da ana shunday ezgu amallardan 33 tasining tasnifi keltirilgan.

Inson iblis Axriman tomonidan yaratilgan ko'p sonli xilqatlar va devlar, shuningdek: xasislik, yovuzlik, tuhmat, takabburlik, ishonchsizlik, qoniqmaslik kabi xislatlardan voz kechib, ular bilan doim kurash olib bormog'i lozim. Diniy va axloqiy holatlarni o'zida mujassamlashtirgan 30 ta gunoh ishlarni bajarmaslik va ulardan tiyilish lozim . Bunday gunohlar jumlasiga: to'g'ri kishini qasddan o'ldirish, olov otashdonini buzish, sanam va butlarga sig'inish, yolg'on, ishyoqmaslik, jodugarlik, o'g'rilik, qasamni buzish, qondoshlik nikohiga kirish bo'yicha zardushtiylik odatini buzish va boshqalar kiradi. Insonlar bilan o'zaro munosobat ham zardushtiylik etikasi prinsiplariga bo'ysungan holda amalga oshirilish lozim. Oqko'ngil insonlar bilan muloqot yaxshilik, yomon kishilar bilan esa kulfat keltiradi. Hukmdorlarning ham yolg'onchi va tuhmatchilar bilan emas, balki donishmand, dono, oqko'ngil kishilar bilan suhbatlashishlari foydalidir .

Ko'rinib turibdiki, «Avesto» va pandnomalardagi ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalarning asosiy o'zagini ezgulik, yaxshilik, halollik, poklik, rostgo'ylik, oliyjanoblik, adolat, insonparvarlik kabi xislatlarni yosh zardushtiylarda shakllantirish masalasi tashkil etib, zardushtiylar e'tiqodining asosi hisoblanmish «Ezgu fikr», «Ezgu so'z» va «Ezgu amal» aqoidlariga tayangan holda , insoniyatni ro'shnolikka, hidoyatga undaydi.

Zardushtiylik ta'limotida shaxs tarbiyasi, uning ma'naviy–ma'rifiy yetukligi g'oyasi asosiy o'rin tutadi. Shaxs kamolotini ta'minlashga yo'naltirilgan qarashlar ifodasi bo'lgan mazdaparastlik ta'limotida ezgulik motivlarini kuylovchi tarbiyaviy o'gitlar, asosan, ikki yo'nalishda aks etadi. Birinchisi – Axura Mazda va u yaratgan ma'budlar, «O'lim bilmas valiylar» va payg'ambar Zardusht faoliyati bilan bog'liq, voqealardan chiqadigan xulosalar–saboqlar bo'lib, u bilvosita rivoyatlar, ilohiy sarguzashtlar talqinida ifodalanadi. Ikkinchisi esa bevosita pand–nasihat xarakteridagi koinlar, ustozlar, Zardusht o'gitlari bo'lib, umumga qaratilgan murojaati shaklidir.

Birinci yo'nalish ko'proq «Avesto»ning boshqa nasklarida, shuningdek «Dinkard» va uning alohida nusxalarida hamda «Bundaxshin»da kengroq aks ettirilgan.

«Avesto»ning barcha qismlaridagi axloqiy tarbiyaga xos bosh xususiyat – ezgulik g'oyasi orqali jamiyatni ma'naviy sog'lomlashtirish, insonni manfur va yomonlik illatlaridan xalos etishga intilishning ustuvorligidir. Shu sababli zardushtiylarning turmush tarzi, ta'lim tizimi odamlar orasidagi o'zaro munosabatlarining asosiy mezonini axloq me'yorlari ekanligi ham tasodifiy emas.

Zardushtiylar hayotida ezgulikning tarkibiy qismlaridan biri – axloqiy tarbiya yagona tizim bo'lib, unda ta'lim jarayoni muhim halqadir. Bu jarayon asosini mazdaparastlik dini aqidalari, Axura Mazda farzlari va Zardusht o'gitlarini o'rganish tashkil etadi.

Zardushtiylar ta'lim tizimidagi asosiy bo'g'inlardan biri bu yakka va guruhiy ta'limdir.

Yakka va guruhiy ta'limning asosiy mazmuni va maqsadini har bir yosh zardushtiyning pok, haqi halol, qo'li to'g'ri, nekbin, mehnatsevar va hunarli bo'lib voyaga yetishi masalasi tashkil etadi. Zardushtiylar ta'lim tizimining asosiy bo'g'inini tashkil etadigan yakka va guruhiy ta'lim jarayonida **chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik** yo'nalishidagi ta'lim turlari o'rgatilgan. Ta'limning **ko'rgazmali, ko'rsatmali, amaliy** metodlaridan foydalanilgan. Yakka va guruhiy ta'limning asosiy tarbiya turi sifatida **mehnat tarbiyasi** alohida

ahamiyatga ega bo'lgan. Yakka va guruhiiy ta'limdagi tarbiya metodlari qatoriga **rag'batlantirish, jazolash va ta'qiqlash** usullari kiritilgan.

Umuman, zardushtiylik ta'lim tizimidagi yakka va guruhiiy ta'lim yo'nalishida yigit va qizlarni yoshlikdan mehnatsevarlik va kasb-hunar egallash malakasi, hamda ko'nikmasini egallashga da'vat etish bilan birga, faol yaratuvchanlik mehnati bilan shug'ullanishga undalganligi diqqatga sazavordir. Zeroki, «Avesto»da ta'kidlanishicha, ajdodlarimizning orzusi hayotda farovon turmush kechirish uchun ishlashga layoqatli har bir odam biron-bir kasb-hunarni egallashi, xususan, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanishi, yerga ishlov berib, chorvani parvarishlab, biron dastgohni yurgizib, xalq ehtiyoji uchun zarur narsani yasab kun kechirmog'i, beg'araz halollik bilan rizqu-ro'z topib yemog'i, birovlariga muhtoj bo'lib «qo'l uzatib, tilanchilik qilmasdan» o'z-o'ziga, o'z mehnatiga ishonib yashamog'i kerak. Bu dalillar ajdodlarimiz kasb-hunarning barcha turlarini rivojlantirishga alohida ahamiyat berish bilan birga, ta'limni mehnat amaliyoti bilan bog'lik holda olib borganliklarini, yigitlarni oqsoqollar yig'inida hunarmandchilik, dehqonchiligi-bog'dorchilik, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi qavmlarda rasmiy jamoa ko'rigidan o'tkazish tadbirlari ham tasdiqlaydi.

«Avesto» qadimgi qismlarining tahlili zardushtiylar jamoasining 3 ijtimoiy qatlam, toifaga bo'linganligini ko'rsatadi. Bular kohinlar (oturbon yoki ozarbon), harbiylar (artishtar) va dehqon-chorvadorlar (vastryush) dir. Keyinchalik dehqon va chorvadorlar toifasidan to'rtinchi qatlam hunarmandlarning ham shakllanganligini ko'rishimiz mumkin.

«Bundaxishn» da Zardushtning uch o'g'li shu uch toifaga mansubligi e'tirof etiladi. Isadvastar – mo'badlar boshlig'i, qohin; Xurshedchehr – harbiy, bosh qo'mondon ; Urvatnar esa dehqonlar va chorvadorlar boshlig'i, rahnamosidir.

Mana shu 3 toifa vakillarini tarbiyalash yo'nalishida ham yakka va guruhiiy ta'lim muhim rol o'ynaydi.

Zardushtiylarning kamolotga yetishishi, jamiyatning faol a'zosiga aylanishi, ijtimoiy-iqtisodiy munosobatlarga kirisha olish jaryonini, ta'lim tizimi

bosqichlarining asosini tashkil etadigan boshlang'ich va yuqori ta'limsiz tassavur qilib bo'lmaydi.

Movorounnahr, Xuroson, Eronda yagona tangriga e'tiqod qilishga asoslangan zardushtiylik dini qabul qilingach, shu hududlardagi shahar va qishloqlarda Ahuramazdaga sig'inish mehroblari joylashgan maxsus ibodatxona-otashkadalar qurilishi avj olib ketdi. Otashkadalar, odatda, shaharning chetidagi keng maydonlarda qurilib «joylashgan manziliga qarab o'ntadan yuztagacha hujra, xona, tolol (zal), qiroatxona, kitobxona, ohangxona (maxsus sozandalar jo'rligida yasht (madhiya) larni kuylashni o'rgatadigan go'sha)lardan tashkil topgan». Qiroatxonalarda «Avesto»ning «Visparad» qismini maxsus ohang va usullar orqali o'qish va qiroat qilish o'rgatilsa, ohangxonalarda «Goh»larni jamoaviy bo'lib qo'shiq (xor) tarzida kuylash o'rgatilgan.

Zardushtiylar ta'lim tizimining asosiy bo'g'inini tashkil etadigan otashkadalar huzuridagi madrasalar rusumidagi o'quv dargohlari hamda maktablarda dunyoviy bilimlarga doir kitoblar bilan bir qatorda «Avesto», «Zend Avesto» nusxalari, ijtimoiy, ma'rifiy qimmatga ega bo'lgan qo'yidagi kitoblarning dastxatlari ham saqlangan va ulardan o'qish jarayonida foydalanilgan :

Boshlang'ich ta'lim jarayonida :

1. Nikadum nask (Nikadum) – 54 fasldan iborat bo'lib, unda rostlik, adolat, el haqi, idora yo'sinlari xususida bahs yuritilgan;
2. Kitradad (Kitradad) – insoniyat tarixi va shahanshoh sulolasi tarixi;
3. Xusporam – dehqonlar va chorvadorlar huquqi haqida;
4. Vendidad – tahorat rasmi, kafanlash va dafn marosimi tartibi, tabobat hamda tabib burchi haqida ;
5. Hoduhn nask- o'limdan keyingi hayot, jannat va do'zax haqida;
6. Spend (Spend)– Zardushtning hayoti va faoliyati haqida;

Yuqori ta'lim jarayonida :

7. Ganaba-sar-nigad (Ganaba-sar-nigad) – grajdanlik, harbiy va jinoiy huquq haqida;
8. Kitobi sarnijat – Qozilik nizomi va huquq haqidagi kitob

9. Sakadum nask (Sakadum)- shohlar hukumatining tuzilishi, adolat, davlat mulki haqida;

10. Stud yasht – insonning tangri nazdidagi va o‘tganlar ruhi oldidagi burchi haqida;

Keyinchalik bu kitoblar qo‘shimcha ma’lumotlar kiritilishi bilan zardushtiy ulamolar tomonidan pahlaviy tiliga tarjima qilinib, bir necha jildlik kitoblarda umumlashtirilgan.

«Avestoda» ta’lim tizimi bosqichlarida kitob o‘qishning afzalligi to‘g‘risida: «Havm dilxohlik bilan nask (kitob) mutoala qilganlarga poklik va farzonalik bag‘ishlaydi»⁴⁰ deyilishi, zardushtiylarda bilim egallashning asosiy vositasi kitob ekanligini asoslaydi. Hozirgi kunda yoshlarimiz orasida ilmiy-ommabop, badiiy kitoblar o‘qishning keskin kamayib ketish tendensiyasi ko‘zga tashlanmoqda. Bu esa o‘z navbatida ularning ilmiy dunyoqarashining shakllanishi, taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi tabiiy. Shu sababli ajdodlarimiz zardushtiylarning kitobsevarlik to‘g‘risidagi mulohazalari va fikrlari, pandlaridan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish yo‘nalishidagi ta’lim va tarbiyaviy ishlar jarayonida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

«Andarzi danagmard» (Donishmand o‘gitlari) da donishmand o‘z o‘g‘liga ta’lim va o‘git berib murojoat qiladi : «O‘g‘lim ! Qo‘rquvni his qilmaslik uchun beayb va begunoh bo‘l. Loyiq bo‘lish uchun shukronalik qil... Xotining va bolalaringga nisbatan iloji boricha ochiqko‘ngil va yaxshi munosabatda bo‘l. Ayniqsa ular bilan doim suhbat qil, pand nasihat ber va o‘qit». Ko‘rinib turibdiki, oila boshlig‘i o‘z farzandlariga birinchi navbatda pand nasihat berib (oil ta’limi), so‘ngra o‘qitishi (maktab ta’limi) farz bo‘lgan. O‘g‘ilning majburiyatlariga esa yaxshi va dono do‘stlar orttirish, boshqalarning haqiga xiyonat qilmaslik, doimo to‘g‘riso‘z va rostgo‘y bo‘lish, o‘zining so‘zi va xatti-harakatlarining oqibati uchun javob bera olish xislatlari ham kirishi ta’kidlab o‘tilgan.

⁴⁰ «Авесто». Ясна. 9-хот 22-банд А.Маҳкам таржимаси. -Т.:Шарқ,2001. 52-бет

Boshlang'ich ta'lim, ta'lim tizimining asosiy bo'g'inini tashkil etib 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan.

7 yoshgacha bo'lgan davrda bolalarni muntazam ravishda o'qitmaganlar, balki zardushtiylik dinining ba'zi qoidalaridan xabardor qilganlar xolos. Bu yoshgacha bolalarga hech qanday gunoh va Ahriman dog'i tegmaydi deya hisoblashgan. Yetti yoshga to'lgan bolaga muqaddas belgilari mavjud maxsus kiyim-bosh kiygizishgan. Yetti yoshda bolalar yomonni yaxshilikdan farqlay oladi degan xulosaga asosan, ularga ayrim ma'suliyatlar yuklangan.

Zardushtiylik ta'limotida bolalarning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor berilganligining guvohi bo'lamiz: «Ey Mazda! tarbiya qilguvchilaring uchun atalgan poyonsiz mehr muhabbatingni ato ayla. Sening o'git pandlaring, hidoyat va ma'rifating qaerda ?»⁴¹ yoki, «Tarbiya hayotning eng muhim tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi xulq-odobni, yaxshi o'qishni, so'ngra esa yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin».

Zardushtiylarning madrasa tipidagi o'quv dargohlarida boshlang'ich ta'lim jarayonining yakuni sifatida 7 san'at turini mukammal bilish va egallash e'tirof etilgan. Bular :

1. O'qish
2. Yozuvni o'rganish
3. Hisoblay olish.
4. Kamondan o'q otish
5. Chavandozlik
6. Diniy ahkomlarni bajara olish
7. Qiroat va qo'shiq aytish

Yozuv va hisoblashni o'rganish ta'limdagi eng quyi bo'g'in hisoblanib, notiqlik va xushsuxanlik boshlang'ich ta'limning oliy bosqichi sifatida namoyon bo'lgan. Jamiyatda ham xattot va mirzalarning o'рни notiqqlarning darajasidan past

⁴¹ «Авесто». Гоҳлар. Ясна. 51-хот. А. Маҳкам таржимаси. -Т.: Шарқ. 2001. 29-б

bo'lgan. Yozuv va hisobni mukammal bilganlar hunarmandlar toifasiga kiritilib, ta'sirchan og'zaki bayon usuliga ega bo'lgan notiqalar esa jamiyatning eng yuqori toifasi hisoblangan kohin va din rahnamolari darajasigacha ko'tarilganlar.

Zardushtiylarda jismoniy va mehnatsevarlik tarbiyasidan nazarda tutilgan asosiy maqsad yoshlarni harbiy-jangavorlikka va mehnatsevarlikka tarbiyalash, ularni jismonan va mehnatga chiniqtirishdan iborat edi. O'g'il bolalarga kurash tushish, otga suvlik solish va uni egarlash, mol boqish hamda ularni urchitish va tug'dirish, tuya-otlarni parvarishlash, ularni boshqara olish, yaylovlarda suruvlarni o'tlatish, chorvani yirtqich hayvonlar va qaroqchilardan muhofaza qilish uchun 50 dan ziyod harbiy qurolni ishlata bilish malakasini egallash majburiy bo'lib, chavandozlik va yana o'ttiz ikki harbiy hunar o'rgatilgan. Shu o'rinda bu holat ta'lim tizimidagi yakka va guruhiiy ta'lim va boshlang'ich ta'limning uyg'unlashganligini ko'rsatib, har bir yoshning kamolotida muhim o'rin tutishi bilan xarakterlanadi.

Zardushtiylarning didaktik-axloqiy asarlaridan biri hisoblangan «Xveshkarixi redagan» (Muallim nasihatlarida) keltirilgan ta'lim tizimidagi **boshlang'ich ta'limning mohiyatini** ochib beradigan quyidagi fikrlar ham ayniqsa diqqatga molikdir :

«Bolalarning ta'lim olishlari uchun ularning vazifalari hamda majburiyatlarini maktab boshlig'i belgilab beradi. «Har kuni.. ertalab quyosh chiqishidan oldin barvaqt turing. Qo'lingiz va yuzingizni dastasho'yda toza suv bilan yuving. Belgilangan vaqtda maktabga borib, u yerda o'z majburiyatlaringiz hamda vazifalaringizni bajarishga kirishing. Maktabdagi mashg'ulot va darslarga ko'zingiz, qulog'ingiz, til va dilingizni shunday qaratingki, mashg'ulotlar tugagandan so'ng aql va zakovat bilan (to'g'ri) fikr yurita biladigan bo'ling... Maktabdan ketayotganingizda to'g'ri yo'ldan boring. Mashg'ulotlardan qaytayotgan paytingiz tanish, yaxshi kishini kim bo'lishidan qat'iy nazar – uchratsangiz ta'zim qiling. Uyga (sizga) berilgan vazifalarni aql bilan va o'gitlarga asosan bajaring, hech qachon ota-onangizni xafa qilmang, opa-singil, aka-uka, xizmatkor va hayvonlarni urmang, yaxshi va loyiq holda (ular bilan) muomalada

bo'ling. Mehribon va muloyim bo'ling. Uyga kelganingizda ota-onangiz oldida hurmat va itoat holatida bo'ling. Sizga nimaiki ishni buyursalar, aql bilan ko'rsatmalarga asosan bajaring. O'tirishga ruxsat olmaguncha o'tirmang. Qachonki (sizga) ovqatlanishga ruxsat bersalar, qo'lingizni yuving, ovqatni oldingizga qo'yib o'tiring, ovqatlanib bo'lgach tishingizni tozalang. Tish tozalagichni joyiga qo'yib, o'ringizni tayyorlang. Qo'lingizni yuvib, sochingizni tarang. Tinch uxlang, keyingi kun, ertaga quyosh chiqishidan oldin yaxshi kayfiyatda uyg'oning. Qo'lingizni va yuzingizni 3 marta dastasho'yda, 7 marta toza suv bilan pokizalab yuving. Maktabga ishtiyoq bilan boring, kimki kunduzi maktabga bormasa kechasi afsusda qoladi. O'qituvchini xafa qilishdan ehtiyot bo'ling, unda sizni jarima va og'ir jazo kutadi. Balog'at yoshiga to'lganingizda sizlar donishmand Xarbed va Dasturlar oldida imtihondan o'tasiz. Ular sizdan to'g'ri javob kutishadi, siz javob berolmasangiz, odamlar sizga qarab turishadi, siz esa yerga»

Ko'rinib turibdiki, har bir yosh bola ta'lim olish jarayonini Zardusht o'gitlaridagi sunnatlarni to'la bajarib, «Andeshai nek», «Guftori nek», «Kirdori nek» mezonlari asosida har jihatdan yuksak axloqlilik, ozodalik va pokizalik me'yorlarini o'zida namoyon qilgan hamda mujassamlashtirgan holda olib borishi lozim.

Shu o'rinda boshlang'ich ta'limda **ilmlarni egallash, saboq olish va dam olish jarayonining aniq vaqti** belgilanganligi ham diqqatga sazavordir: «...U kunning ibtidosi va intihosida, u tunning avvali va oxirida bilim olmog'i, tafakkur va donishga limmo-lim bo'lmog'i, nihoyat ashavanlik yo'lida shunday manzilga yetmog'i kerakki, ilohlar sha'niga hamdu sanolar aytsin, ularni ezgu kalomlar bilan ardoqlasin. Va shu yo'sinda o'z bilimini ziyoda qilsin». «...U kunning o'rtasi va tunning o'rtasida juda rohatlanib, orom olmog'i, shundan so'ng ilm ortidan shu qadar jiddu-jahd etmog'i kerakki, o'tmish donishmandlar qoldirgan hamma narsani jonu dildan o'rganib olsin»⁴².

Boshlang'ich ta'limni olgan har bir zardushtiy ta'lim yakunida qasamyod qabul qilgan. «Avesto»da keltirilgan **shogird qasamyodi** diqqatga molikdir:

⁴²«Avesto». Вандидод.4-фаргард.2-бўлим.45-банд. А.Маҳкам таржимаси. -Т.:Шарқ.2001.121 -бет

“Toki jonim bor ekan, toki qudratim qoim ekan, o‘z xohishim va yo‘lboshchilarim amr-irodasi bilan nekogohliknigina istayman, ezgulikni istayman.

Boshlang‘ich ta’limda, **bilim sohalari** sifatida yozuv va o‘qishni o‘rganish, hisob va yulduzlar ilmini o‘rganish (arifmetika, falakiyot), kamondan o‘q otish, chavandozlik (harbiy bilim), diniy ahkomlarni bajara olish, qiroat va qo‘shiq aytish (musiqa) ni o‘rganish majburiy hisoblangan.

Ta’lim metodlari :

1.Og‘zaki, bayon qilish

«Avesto» va pandnomalar matni xarbed va dasturlar tomonidan og‘zaki tarzda yoddan bayon qilingan. Matnlarni bayon qilish shakli sifatida **hikoyat, rivoyat, nasihat, o‘git, qo‘shiqlardan** foydalanilgan. O‘rganilgan yangi bilimlarni mustahkamlashga oid topshiriqlar berilgan.

Ustoz-muallimlar tomonidan har bir saboq jarayonida, og‘zaki bayon tarzida «Avesto» nasklarining «Patmonlari, bandlari, zandlari, so‘rovlari, javoblari, ikki daf’a kuylanishi, yaxshi o‘qilmog‘i, yod aytilmog‘i»⁴³ lozim bo‘lgan.

2. Ko‘rgazmali

Boshlang‘ich ta’limda ko‘rgazmali usullardan keng foydalanilgan. Jumladan hisob (arifmetika)ni o‘rganishda barsam tayoqchalari, falakiyot ilmida osmon jismlarini ko‘rsatish va kuzatish, san’at sohasida musiqa asboblari, san’at asarlari, imoratlar, qoyada o‘yilgan tasvirlar va h.k.z lar ko‘rgazma vazifasini bajargan.

3. Amaliy

Boshlang‘ich ta’limdagi og‘zaki va ko‘rgazmali metodlar orqali olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida ta’lim jarayonida amaliy (mashq, topshiriq, muloqot, mustaqil ta’lim) usullardan ham foydalanilgan. Bu usullar tarkibiga harbiy aslahalarni ishlatish, chavandozlik, kurash tushish, she’r va qo‘shiq aytish, musiqa asboblari chalish, notiqlik, rasm chizish, qoyada tasvir o‘yish, dasturxonni bezash, mehmon kutish, shatranj va nard o‘ynash, xaoma ichimligi tayyorlash, otashkadalarda ibodat qilish kabi ko‘plab amaliy mashg‘ulotlar kirgan.

⁴³ «Авесто». Виспирад. 14 бўлим. 2-банд А.Маҳкам таржимаси. -Т.:Шарқ.2001. 290-бет

O'rganilgan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash muloqot jarayonida amalga oshirilib, o'quv topshirig'ining o'zlashtirilish darajasi tahlil qilingan.

Zodagon oilaga mansub o'spirin avvalambor shahanshoh bilan suhbat vaqtida, ehtirom holatida qo'llarini orqasiga yashirib o'tirdi. Hukmdor uni imtihonga tutdi. Imtihon vaqtida hukmdorga murojoat qilib «U ! shunday dedi : umrbod yashagin ey shahanshoh, orzularni amalga oshiruvchi va dunyo shahriyori... Mening oilam qudratli, badavlat va doimo hukmdorlardan minnatdor bo'lib kelgan... O'z vaqtida meni maktabga (farxangiston) ta'lim olishga berishdi va o'qishda men tirishqoq bo'ldim. Men Yashtlar, Xadohn, Yasna, va Vandidodni –xarbed sifatida yodladim, va Zandni (Avestoning o'rta asrlardagi forsha sharhi) qismma-qism o'rgandim. Dabirlikda esa (dunyoviy fanlar) badiiy adabiyot va adabiy nutqda mohirman. Kamondan o'q otishda men shunday mergankiman, g'animim mening o'qimga chap bersa, o'zini baxtli deb hisoblashi lozim. Kurash, ot choptirish, chavandozlik, qilichbozlik nayza bilan muomalada shunday kuchlikiman, menga duch kelgan g'anim o'zini baxtsiz deb hisoblashi lozim. Shuningdek, Vin, borbad (Borbad tomonidan yaratilgan musiqa asboblari) chalish, nog'ora va do'mbira chertish, qo'shiq va she'rxonlik bahslarida birinchiman. Yulduzlar, sayyoralar va osmon jismlarini o'rganish va bilish bo'yicha menga teng keladigan yo'q. Shatrang (shaxmat) va nevertashir(narda), xashtpad(sakkiz yurishli o'yin) o'yinlarida tengqurlarim mening oldimda ip esholmaydi». Shahanshoh shuningdek o'smirni eng yaxshi ovqatlar, ichimlik turlari, kiyim-bosh, musiqa, o'simliklar, gullar, eng zotdor ot zotlarini qay darajada bilishi, jamoa va ziyofatlarda o'zini tutishi yo'nalishlari bo'yicha imtihon qildi. Barcha berilgan savollarga o'smir oqilona va a'lo darajada javob berib, sovg'a bilan taqdirlandi, shuningdek, saroyda xizmatda qoldirildi.

O'smirning javoblariga asoslangan holda uning qanday bilimlar sohasini va hunarlarni o'rganganligini bilishimiz mumkin. Haqiqatdan ham balog'at yoshiga yetgan o'smirning deyarli barcha diniy, dunyoviy, harbiy, maishiy-ma'naviy sohalarda yetuklik va barkamollika erishishi avval boshlang'ich so'ngra yuqori ta'limning mustahkam poydevorga qo'yilganligi, bu jarayonda dars usullari,

uslublarining o'ziga xosligi, muallimlarning mehnati va jonkuyarligi bosh omil ekanligini aytib o'tish joizdir. Shu o'rinda yuqori ta'limning yakuniy natijasini kafolatlovchi, ya'ni o'smirlarning bilim darajasiga qarab ularni davlat ishlariga jalb etilishi oliy hukmdorning shaxsan doimiy nazorati va izmida bo'lganligini ko'ramiz. Bu holat hukmdor va davlat boshqaruv organlari tomonidan ta'lim tizimini boshqarish, qo'llab quvvatlash, uni sifatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishlari natijasida kelajakda davlatni boshqarish ishlariga bevosita faol qatnashuvchi mutaxassislarni voyaga yetkazish jarayoniga naqadar ma'suliyat bilan yondoshilganligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, zardushtiylar ta'lim tizimidagi yuqori ta'lim boshlang'ich ta'limda olingan bilimlarni mustahkamlash bilan bir qatorda yangi bilimlar olish, bilimlarni chuqurlashtirish, davlat va jamiyatdagi ijtimoiy munosobatlarni tartibga solib turuvchi faoliyatda ishtirok etish, boshqarishda ishtirok etuvchi zardushtiylarni kamolga yetkazishga xizmat qilgan.

Qadimgi Turon va Eronda vujudga kelgan, o'z davrining yetakchi ilmiy, irfoniy, ma'naviy, axloqiy fikrlar, qarashlar majmuasini yaxlit tarzda o'zida mujassamlashtirgan zardushtiylik ta'limotida ilm-fanga munosobat, uni ulug'lash, qo'llab-quvvatlash asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Zardushtiylar ta'lim tizimidagi bosqichlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim va tarbiya jarayoni har bir yosh zardushtiyning kamolotga yetishining poydevori hisoblangan.

2.2. "Avesto"dagi axloqiylik va komillikka oid pandnomalar xususida

Zardushtiylik ta'limoti tadqiqotchilarining ta'kidlashlaricha, "Avesto"ning to'liq mukammal nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Lekin uning mohiyati mazdaparastlik aqidalarini aks ettiruvchi qator manbalarda bayon etilgan. "Dinkard", "Bundaxshin" shular jumlasidandir. V I I — I X asrlar davomida yaratilgan bu asarlarda zardushtiylikning mazmuni, asosiy ahloqiy qarashlar aks etgan.

Xalifa al — Ma'mun (813 — 833) hukmronligi davrida donishmand Abdufaribag tomonidan yozila boshlanib, IX asr oxirlarida Aturbat Hamid o'g'li tomonidan tugal xolga keltirilgan "Dinkard" ning 9 kitobidan 7 tasi bizgacha yetib kelgan. O'rta asr fors tilida bitilgan bu asarda "Avesto" dagi miflar, Zardusht sarguzashtlari va yetti tangriga aloqador voqealardan tashqari ta'lim — tarbiyaga bag'ishlangan maxsus boblar ham mavjud. "Shuning uchun ham o'rta asrlarda "Avesto" va zardushtiylik dinini targ'ib qilish, shu e'tiqodning paydo bo'lishi tarixi, moxiyatini urganishda ushbu manbaning qiymati beqiyos. Barcha avestoshunoslar, tarjimon va lug'atnavislarning ko'proq "Dinkard" ga murojaat etishlarining boisi ham xuddi ana shundadir".

"Bundaxshin"ning bizgacha Eron nusxasi ("Katta Bundaxshin") va "Hind nusxalari" yetib kelgan. O'ttiz turt fasldan iborat bu nodir manbada, bir tomondan, olamning yaratilishi, yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi kurash batafsil bayon etilsa, ikkinchi tomondan, boshqa yozma yodgorliklarda uchramaydigan qator ilmiy — axloqiy fikrlar, ajdodlarimizning ta'lim — tarbiyaga oid qarashlari aks etgan.

"Avesto" asosiy qismlarning turli sabablarga ko'ra parokanda bo'lib ketishi asarni butunlay yo'qota olmaydi, albatta. Ulardagi mazmun turli tarjima va sharhlar orqali bizgacha yetib keldi. VI asrda paxlaviy tilida yaratilgan qulyozma manbalar "Avesto" qismlarining mukammal nusxalaridir. Ular, asosan, pand—nasihat harakteridagi ibratli xikoyat va axloqiy fikrlar bo'lib, andarzlar — o'gitlar majmuaidir. Bularning bir qismi "Sharq yozma yodgorliklari" turkumida "Pexlaviyskie nazidatelnye teksty" nomi bilan rus tilida chop etilgan .

"Avesto" yaratilgach, undagi ta'limiy — axloqiy qarashlar borgan sari keng yoyila borib, asrdan asrga, avloddan avlodga uzatildi. Ayniqsa, axloq —odob, barkamollik

xaqidagi nasihatlariga qiziqish va extiyoj barcha davrlarda kuchli bo'lgan. Shu extiyojning natijasi sifatida "Avesto" o'gitlari faqat Axura Mazda yoki Zardusht tilidan emas, balki aniq tarixiy yoki afsonaviy shaxslar va dastlabki muallimlar tilidan ham bayon etiladiki, bu xol ulardagi qarashlarni yanada hayotiyalashtiradi, xaqqoniyligini kuchaytiradi.

Axloqiy o'gitlarning asosiy qismi shoh Xisrav Anushirvon (531 — 579), Shopur II (309 — 379) davrida koxin Ozorpod, Anushirvon zamondoshi Bok I Tafrid, vaziri Buzurgmehr va boshqalar tilidan bayon etilgan. O'gitlar mavzusi nixoyatda keng va rang —barang bo'lib, ular zardushtiylik ta'limotining bosh g'oyasi — ezgulikni ulug'lash va insonni ma'naviy poklash aqidasini targ'ib qilishga qaratilgan. Ularning bayon shakllari ham turlicha bo'lib, ota va farzandning muloqoti, muayyan xikoyat tavsifi yoxud bevosita ustozlar nasihatlarini tarzida ifodalangan. Lekin ularning barchasiga xos asosiy xususiyat — har qanday sharoitda ham insonni xaqiqatga yo'llash, uning ongiga ezgu fikr, ezgu suz va ezgu amal aqidasini singdirishdir.

Ingliz avestoshunosi M.Boys zardushtiylik ta'limotidagi o'gitlarning ko'pchiligi qadimda og'zaki an'analar tarkibida paydo bo'lib, yashab kelgani hamda asosan monolog yoxud dialog shaklida ifodalanganini, vaqt o'tgan sari ularga badiiylik unsurlari qo'shilib borganini ta'kidlaydi va shu bilan birga ularni quyidagicha guruhlaydi:

- 1) hayotiy kuzatish xulosalariga asoslangan ("qarilikka davo yo'q");
- 2) farosat va sezgirlikni tarannum etuvchi ("o'zingga foydali kishi bilan do'st tutin");
- 3) odob —axloqqa aloqador ("Burchga sodiqlik — eng yaxshi ximoyadir") o'gitlar.

Bundan tashqari, o'gitlarni mazmun — moxiyati ko'ra shartli ravishda ikki guruhga ajratadi:

- 1) bevosita zardushtiylikning diniy aqidalarini targ'ib qiluvchi o'gitlar;
- 2) maishiy — ma'naviy mavzuga oid nasihatlar.

Diniy aqidalarni tashviq qiluvchi o'gitlarda, avvalo, "zardushtiylik marosimlariga rioya qilish ezgulik" ekani va har ikki olamga shubhalanmay qarashning esa yaxshi "ligi ta'kidlangan.

O'gitlarda oila, ota —onaga hurmat, bola tarbiyasi kabi masalalarga alohida o'rin berilgan. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, hayotning davomiyligi, naslning aslini ta'minlash, avvalo, oila qanday asosda qurilganiga bog'liq. Bunda hayotni bo'ydoq

o'tkazish va ayni paytda ko'pxotinlik axloqqa zid xolat sifatida qattiq qoralangan, "yaxshi ayol bilan umr o'tkazish — baxt", "xotinsiz kishi — baxtsizdir", deyiladi. Balog'atga yetgan qiz ham ota — onasi va jamoatchilik fikriga qarshi yo'l tutsa, qopga solinib yigirma besh darra kaltaklanish bilan jazolangan. Zero, "ota — onaning istaklarini bajarmagan o'g'il farzand emas" hikmati shunday kuzatish asosida yuzaga kelgan.

Yagona Tangri Axura Mazda oilali erkaklarni oilasiz mardlardan ko'ra muxtaram tutishini aytib, "Kimda — kim balog'at yoshiga yetgan yigitning uylanishiga moddiy yordam bersa, unga bu dunyoyu u dunyoda savob yog'dirajagini, oila qurmoqchi bo'lgan har bir kishiga yo'l ko'rsatmoq ham mazxablarning vazifasi ekanini ta'kidlab, kimning xotini bo'lsa, xotinsiz va dunyoda farzandsiz kimsadan yaxshiroqdir" deya ta'lim beradi.

O'g'itlarda yigitlarga qarata "bu dunyoda uylan va o'z avlodingni yarat, ularga jonkuyar bo'l hamda bu yo'ldan og'ishma" deya murojaat etadi. Shu bilan birga, zardushtiyar axloqi bu yo'ldan atayin adashganlarni jazolash orqali tarbiyalashni ham joriy etgan. Chunonchi, o'g'il — qizlar 21 yashar bo'lgunga qadar erkin jufti xalol tanlash xuquqiga ega bo'lmagan. Agar yigit qiz bilan axdu paymon qilib, ota — onalar roziligisiz nikoxdan o'tmoqchi bo'lsa, jamoa vakillari bunday to'yni o'tkazishgan. Ammo, nikox o'qilganda ota — ona roziligini olmaganlari sababli ular tegishli merosdan maxrum etilajaklari e'lon qilingan. Lekin, oila masalasida yoshlar erki poymol qilinmagan, balki kattalar, ustozlar maslahatlariga quloq tutish, yaxshi — yomonni farqlasa, har bir erkak va ayol "o'zi to'g'ri yo'lni tanlashi va hayoti pok va xiradmand yor bilan o'tishiga erishish" lozimligi ham nasihat qilinadi. Bu jixatdan Ozorpod Mehrospanonning o'gitlari ayniqsa ibratlidir. Uning o'z o'g'illari yo'q edi. Ma'budlarga iltijodan keyin ko'p o'tmay o'g'il tug'ildi. Spitamon urug'idan bo'lgan Zardusht xotirasi uchun u ug'liga Zardusht deb nom berdi va nasihatlar qildi: "O'zing uchun ayolni o'zing izla", "Kamtar ayolni do'st tut, qizingni muloxazali va aqlli kishiga ber. Zero, bunday kishi yaxshi yerga o'xshaydi: unga nima ekilsa, anvoyi ne'matlar unib chiqaveradi", "O'zgalar ayollariga ko'z solma, aks xolda bo'yningda og'ir gunoh qoladi". Bu o'gitlarda ayolga befarq bo'lmaslik, balki uni do'st sifatida e'zozlash, boshqalar xotinlariga yomon nazar qilmaslik, vafo ko'rsatish zarurligi ta'kidlanadi.

Shu bilan birga, erkak kishi jufti xalolining har tomondan yetuk, bilimli bo'lishi

xaqida ham qaygʻurishi" zarurligi taʼkidlanadi: "oʻzingni iztirob va ogʻir gʻam bosmasligi, keyin afsus chekmasliging uchun umr yoʻldoshingni, bolalariningni bilimsiz qoldirma" deya nasihat qilinishi er va otaning oila aʼzolari kamoloti yoʻlidagi burchini eslatadi.

Bunga javoban ayol oldiga ham muayyan talablar qoʻyilgan. Tabiiyki, ularda oʻsha davr mafkurasi bilan izohlanadigan baʼzi qarashlar taʼsiri boʻlsa ham ("Siringni ayollarga aytma" kabi), umuman, ayolni erga sodiqligi ustuvor shart sanalgan. Shuning uchun "Erning maslaxatlarini qilmaydigan, uning foyda va zarariga, quvonchi va gʻamiga sherik boʻlmaydigan xotin har qanday dushmanidan yomondir" deya uqtiriladi.

Zardushtiylarda oila odobi odatda ota — onani hurmat qilishga oʻrgatishdan boshlangan. Bu jarayon bola ustoz qoʻlida taʼlim — tarbiya olayotgan muddatda ham davom etgan. Zero, ota — onani, kattalar va ustozlarni hurmatlash har ikki olam farovonligining muhim sharti, axloqiy mezoni deb qaralgan. Shuning uchun ham koʻplab oʻgitlarda bu masalaning uchrashi tabiiydir. Ikkinchidan, oila ahilligi va farzandlar kamoloti avvalo ota — onaga bogʻliq ekanligiga qattiq ishonishgan va ota — onali kishilarni omadli sanashgan.

Qadim ajdodlarimiz savob va gunohni puxta anglab, oʻzlarini yovuz ishlardan tiyish yoʻllaridan biri — ota — ona ibрати va eʼzoz deb bilishgan, aks xolda katta gunoh qilishdan va Tangri gʻazabiga duchor boʻlishdan xayiqishgan. Oʻz navbatida, ota — onalar ham farzandlari tarbiyasida burchlarini toʻgʻri anglab, chinakam maslaxatgoʻy va murabbiy boʻlishga intilganlar. Shuning uchun ham ota "Ilm va barkamollik oʻrgatuvchi, barkamollikka undovchi ustoz" sifatida ulugʻlansa, ona esa boshda koʻtarib eʼzozlashga loyiqligi uqdiriladi.

Maʼlumki, "Avesto" qismlaridagi pand — nasihatlar turli davrlarga oid boʻlib, ularda kishilarning bevosita turmush tajribalari va ijtimoiy — maishiy qarashlari xulosalari umumlashtirilgan. Bu xususiyat oila aʼzolari, xususan ota — ona va farzand munosabatlari, odob axloq meʼyorlarining ifodalanishida aks etadi. Lekin oʻgitlar mazmunidagi asosiy taʼlimiy — axloqiy fikrlar saqlanib qoladi. Shu jixatdan "Avesto" va paygʻambar xadislariidagi koʻpgina qarashlarda hamoxanglik, yaqinlikni koʻrish mumkin. Chunonchi, "Avesto" da balogʻatga yetgan yigit va qizni oila qurishi odob meʼyorlaridan biri sifatida qaralsa, xadislarda "uylanishga yaroqli va qodir boʻla turib, uylanmagan odam islom

axlidan emas", deya hukm qilinadi yoki zardushtiylarda ota —onani ranjitish katta gunoh xisoblanganidek, islom ta'limotida "ota —onasini qarg'agan farzandni Tangri qarg'agani" o'ta odobsizlik sifatida baholangan.

Ota —onaning farzand oldidagi burchlari orasida axloq maqomi oldingi o'ringa qo'yilgan. Bunda ota — ona farzandiga beradigan barcha moddiy boyliklari ne'matlaridan odob ustun sanaladi. Zero, "hech bir ota — ona o'z farzandiga xulq odobdan buyukroq meros bera olmaydi" deyilishi bejiz emas .

Baxtli bo'lishning bir qirrasini — ota —onali bo'lishdir. Shuning uchun ham ularni qadrlash, har ikki olamda ham unutmazlik kerak. Binobarin, Ozorpod: "Ota —onangni hurmat qil, ularga tavozeli va kamtar bul. Chunki ota — onasi bor kishi sherga o'xshaydi: u o'rmonda hech kimdan qo'rqmaydi, ota — onasi bo'lmagan kishi esa bevaga o'xshaydi: undan hamma narsani tortib oladilar, u esa hech narsa qila olmaydi, istagan kishi uni xo'rlaydi" , — deya xulosa qiladi.

O'g'itlarda farzandlarga ota — ona an'alarini davom ettirish, ularning ezgu ishlariga sodiq bo'lib, do'st va dushmanlarini farqlay bilish, bu ishlarda faqat adolatga amal qilish farz ekanligiga alohida urg'u berilgan. "Ota — onasi xafa bo'lgan yoki norozi bo'lgan kishilarga yaqinlashma, chunki adolatni aldov bilan tutib bo'lmaydi, sening do'stlaring ham qolmaydi". Bu hikmat farzandni yaxshini yomondan, adovatni adolatdan farqlash, hayotga teran boqish zarurligidan ta'lim beradiki, bu ham axloqiy qadriyatdir.

O'g'itlarda savob va gunoh, bunyodkorlik va buzg'unchilik kabi o'zaro bir — biriga zid qarashlarning inson hayotidagi o'rni talqinlariga katta e'tibor berilgan. Bularning birinchisi insonni xaqgo'ylik, yaratuvchilik va kamolot sari da'vat etsa, ikkinchisi razolat, xudbinlik va axloqsizlik kabi illatlarga giriftor etishga o'rinadi. Shuning uchun har bir kishi, avvalo, ogohlikka va o'zligini anglashga intilishi, yaxshi va yomonni keskin farqlab yashashi zarurligi uqdiriladi.

Zero, quyidagi nasihatlarida inson faoliyatining har ikkala olamda ezgu va yovuz ishiga qarab baholanishi xususida ibratli fikrlar bayon etilgan: "Har kuni uz xatti — harakatlaringni baholab bor: bugun men qanday foydali ish qildim, qanday yomon ish qildim, qanday savobu, qanday gunoh qildim, ezgu yo'ldan qancha yurdim va noloyiq yo'ldan qancha yurdim deb o'yla. Savob va gunohlarning xisobi bo'lsin, zero kimda

gunohlaridan ko‘ra savoblari ko‘p bo‘lsa, adolatli Srosh (arzlarni tinglash xudosi) uning qo‘lidan tutib jannatga yetaklaydi. Kimki yaxshi ishlardan ko‘ra gunohlari ko‘p bo‘lsa, Abzarish dev (yomonlik timsoli) uning qo‘lidan ushlab do‘zaxga eltadi" [59 — 68].

Inson va butun borliq Yazdon tomonidan yaratilgan bo‘lsa ham kishilarning savob yoxud gunoh yo‘lini tanlashdagi ixtiyori, ongli faoliyati inkor etilmaydi. Aksincha, xaqlik va poklik dastavval xolis niyatga, ezgulik va adolatga intilgan kishiga ato etiladi. Shuning uchun o‘gitlarda har bir ishni puxta o‘ylab, sidqidildan bajarish, boshqalarga ham naf tegadigan, foydali jihatlarini unutmazlik zarurligi uqdiriladi. Bulardagi bag‘rikenglik, umidvorlik, xalollik kabi motivlar bugungi kun uchun dolzarb va ibratlidir. Chunonchi, "O‘tgan ishni esingdan chiqar, amalga oshmagan ishga o‘ksinma, g‘am yema", "O‘zingga ma‘qul bo‘lmagan ishni boshqalarga ham ravo ko‘rma", "Shon —shuxratni deb o‘z burchingni unutma" va boshqalar.

Shuningdek, inson burchining muhim qirralaridan biri — o‘z ustozlari, boshliqlar, xomiylar, umuman kattalarga munosabatda aks etishiga o‘gitlarda alohida urg‘u berilgan. "Kecha va kunduz Tangrini ulug‘lash"ga ahd qilgan kishi o‘z ishini to‘g‘ri bajarishi, ustozlari, rahbari va otasini doimo eslab yurishi, xususan, ustozdan tanbeh eshitmaslik, uni qiynamaslikka intilib, o‘rgangan bilimlarni faqat munosib kishilarga berish, boshqalardan tortib olmaslik farz sifatida ta’kidlanadi.

Sharqda boshliqlar va do‘stlarga sodiq bo‘lish bilan birga inson o‘z qadrini ham bilishi eng qadimgi qadriyatlardan biri ekanligi Zardushtiy pandnomalaridagi o‘gitlarda ham aks etgan. "Mamlakat xomiysi" va jonlilar qayg‘usi bilan band bo‘lgan hukmdorlarni" qarq‘amaslik targ‘ib etilsa ham jamiyat a‘zolarining insoniy mohiyati ularning mulkiy tabaqalanishlaridan qat’iy nazar, ezgulik maqomlariga amal qilishlariga qarab belgilangan. Shuning uchun ham Anushirvon o‘gitlarida "Hukmdor va do‘stlaringga sodiq bo‘l, uzingni hech kimga qul qilib qo‘yma" nasihati bilan bir qatorda turli tabaqa vakillariga yaxshi va yomonligi va insonga munosabatiga qarab muomala qilish zarurligi qayd etilgan. "Boylar ziyofatiga ishtirok etma", "Mastlar bilan bir ziyofatda o‘tirma", "Ziyofatda mushtlashishdan chetda bo‘l", "Odamlarni urma, lavozim uchun kurashma", "Qamoqxona noziriligiga zolimni tayinlama", "Qasosga intilma" o‘gitlarida yomonlardan uzoqlashish, "Boshliqni ulug‘la, uni hurmat qil va so‘zlariga quloq tut", "Ulug‘ martabali kishilarni

e'zozla, ularning maslaxatlarini ol, ularga itoat qil", "Keksalar ustidan kulma, chunki sen ham qartayasan", kabi nasihatlarida esa yaxshilarga yaqinlashib, ularni e'zozlash kerakligi ta'kidlanadi.

Ma'lumki, zardushtiylik ta'limotida inson ruhi masalalari salmoqli mavqega ega. Mazdaparastlik aqidasi buyicha, odam o'lgandan keyin uning ruhini qo'lga kiritish uchun do'zax va jannat, devlar va shohlar o'rtasida jang boshlanadi.

Bunda gunohkorlar ruhi do'zaxga tortilsa, yaxshilar ruhini Mehr, Surush, Rashn kabi xomiyar jannatga eltadi. Natijada har kimning ruhi bu dunyodagi yaxshi va yomon amallarining timsoli sifatida olqish yoxud qarg'ish olgan xolda narigi dunyoda yashab yuradi. Bu aqidaga qattiq ishongan kishilar ruh pokligi yo'lida o'z jonlarini do'zaxga topshirmaslik uchun harakat qilganlar. Bu esa, shubhasiz, ruh muqaddasligi va uning axloqiy tarbiyadagi o'rni xaqida qator o'gitlarning vujudga kelishiga imkon bergan. "Orsizlik va nokamtarlik yo'lida jonni do'zaxga topshirmaslikka" da'vat etuvchi bunday o'gitlar anchagina: "Qaxr — g'azab va qasos uchun o'z ruhingni qiynama", "Jannatga yetmoqchi bo'lsang, ruhing g'amini ye, adolatli bo'l", "Doimo uz ruhingni o'yla", "Hech kimni aldama, toki ruhing aziyat chekmasin" va boshqalar.

Ruh pokligi, diyonatlilik o'gitlardagi yetakchi qarashlardan biridir. Zero, donolik, xaqgo'ylik, nodonlik, g'irromlik kabi o'zaro qarama — qarshi sifatlar asosida kishilarni odob va xushxulq soxibi bo'lish, ezgu nom qoldirishga undovchi ko'plab nasihatlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra xaqiqiy inson o'zini ezgulik yo'liga bag'ishlar ekan, donishmandlik va aqlu farosatdan qanchalik baxramand bo'lsa, nodonlik va jaxolatdan shunchalik nafratlana olishi ham zarur. Chunki donolik va nodonlik inson qalbidagi yonma — yon ikki xislat bo'lib, birinchisi ezgu amalga, ikkinchisi esa yovuz amalga moyildir.

Qator o'gitlar insonni bu ikki jixatga ogohlik bilan yondashib, to'g'ri yo'lni tanlashga undaydi. "Donishmand kishilar maslaxatlarini ol", "Do'stlarim ko'paysin desang donishmand bo'l", "O'z bilimingdan o'zgalarni baxramand et", "O'tashdek pok va duraxshon bo'ling", "Sobit deb nom chiqarmoqchi bo'lsang, sodiq bo'l", "Baxtli bo'lay desang, diyonatli bo'l", "Dunyo boyliklari ketidan quvma" va boshqalar.

Nodonlik yovuzlikning bir qismi bo'lib, kishini jaxolat va gunohga yo'llaydi,

axloqsizlikka yo‘l ochadi. Ulug‘ zotlar, ustozlar hamisha bu xaqda ogohlantirib kelishgan. Yomon ishlardan tiyilishning muhim omillaridan biri sifatida joxil, g‘iybatchi, razil shaxslardan yiroq bo‘lishga va turmush xodisalariga teran nigox bilan xushyor munosabat bildirishga undashgan. Bu xaqda o‘gitlarda ko‘plab namunalar uchraydi: "Sirlaringni nodonga aytma", "Yovuz bilan bir yo‘lda yurma", "Nodon bilan kengashma", "Uyati yo‘qdan mol olma", "Xasadgo‘yni yordamchi qilma", "Xasadgo‘yga molingni ko‘rsatma", "Kek saqlaydigan odamdan uzoq yur", kabi. Bu ogohlantiruvchi nasihatlarda yovuzlikning kirdikorlari shaxshtirilgan xolda ular harakterini ifodalovchi nomlar bilan ifoda etilgan ("Nodon", "yovuz", "uyati yo‘q", "xasadgo‘y", "zoti past", "kek saqlaydigan").

Zardushtiylik ta’limoti dasturlarida ko‘p uchraydigan taqdir va amal, qalb va ruh tushunchalari insonning ma’naviy poklanishi va axloqiy kamolotidagi rivojlanish jarayonlarini aks ettiradi. Yazdon ato etadigan taqdirda har bir kishining ezgu yoxud yovuz amali aks etib, u qalbni toza yoki nopok qilishi, ruhiga esa xotirjamlik yoxud bezovtalik bag‘ishlashi tabiiydir. Axura Mazda har bir bandani yomon yo‘ldan asranishga va axloqan barkamol, yetuk shaxs sifatida shakllantirishga erishadi. Quyidagi fazilatlarni egallashga da’vat etadi: aqllilik, bardoshlilik, ishonuvchanlik, e’tiqodlilik, farosatlilik va boshqalar.

Bu o‘rinda aqlni shartli tarzda tug‘ma va amaliy aqlga ajratib, birinchisida iloxiylik, Tangri ne’mati ustuvor bo‘lib, u qalbni qo‘rquvdan, gunoh va samarasiz faoliyatdan asrab, pirovard o‘limni o‘ylashga qaratilgan bo‘lsa, amaliy (dunyoviy) aql har kimning bevosita o‘ziga bog‘liq xolda aniq hayotda "to‘g‘ri yo‘l tanlash, unda maxkam turish, nima bo‘ldi va nima bo‘lishni ko‘ra bilish, bo‘lmaydigan narsaga ishonmaslik va qilinmaydigan ishga o‘rinmaslik" nazarda tutiladi. Bu ikkala jixat o‘zaro aloqador bo‘lib, inson harakteri — dunyoqarashi va amaliy faoliyati uyg‘unligiga bog‘liqdir. Zero, harakterning vazifasi, o‘zni yomon axloqdan, yomon niyatdan saqlash va ezgu axloq me’yorlarini egallashdir.

Bardoshlilik hayot davomida ishonch, e’tiqod, faxm — farosat kabi fazilatlar orqali takomillashib boradi. Shunga ko‘ra "Avesto"da bu fazilatlardan har birining qisqacha ta’rifi beriladiki, ular bugungi kunda ham ahamiyatini yuqotgan emas. Ularning mazmuni, asosan quyidagicha:

-o‘zni qiyinchilik va yomon fikrlarni yengishga chog‘lash, foydali mexnat va umuminsoniy ishlarga qodir deb bilish, ortiqcha niyatdan tiyish;

-Yakka Tangri g'oyasiga ishonib, uni devlar yo'lidan farqlash, o'zni gunoh uchun jazo borligidan, savob uchun rag'bat mavjudligidan ogoh qilish;

-narsa va xodisalarga teran nazar, yovuzlikning zarar berishiga yo'l qo'ymaslik va o'zni har xil bexuda istaklardan asrash.

Shu bilan birga bu fazilatlar quyidagilarga amal qilinganda yanada ibratliroq buladi: chinakam aql va bilim o'zaro omuxta bo'lsa, boylik saxovat va ximmat bilan qo'shilsa, ezgu suz ezgu amalni vujudga keltiradi. Aks xolda bilimsiz aql qalbni maxv etadi, ximmatsiz boylik dev Axriman xazinasiga aylanadi, suz va amal porakanda quruq safsata bo'lib qolaveradi. Zero, jism va ruhga yolg'on va yovuzlikdan ozor yetmasin desangiz, o'zingizni tubanlik va bahillikdan, xasislik va tuxmatdan, axloqsizlik va g'azabdan saqlash nasihat qilinadi.

"Avesto"da axloqiy tarbiya insoniy fazilatlarining ezgu maqsad yo'lida o'zaro muvofiqlashgan xoldagi ijodiy jarayoni sifatida baholanadi. Bu jarayonda ta'lim, harakter va aql — zakovotga alohida e'tibor berilib, ulardan har birining o'rni ta'kidlab ko'rsatiladi. Jumladan, ta'lim shaxsni ulug'lab, uning kamolotiga xizmat qilsa, yaxshi xulq harakterni shakllantiradi, aql esa shaxs va uning harakterini takomillashtirib, qalb va ruh tozaligini ta'minlaydi.

Umuman, axloqiy yetuklikka qaratilgan barcha ijobiy sifatlarda ularning zidi bo'lgan birorta ham salbiy jixatlar bo'lmasa, chinakam va tugal fazilatlarga aylanadi. Chunonchi, aqlda — manmanlik, talantda — bahillik, vazminlikda — qasoskorlik, xulqda — tubanlik, saxiylikda — talon — tarojlik, umidda — faoliyatsizlik, karamda — ta'magirlik, bilimda — qalbakilik bo'lmasligi zarurligi qayd etiladi.

Muhimi shundaki, zardushtiylik ta'limotida shaxs tarbiyasi jarayoniga ijtimoiy voqelik, tabiat va jamiyat xodisalari, iloxiy va dunyoviy qarashlar bilan bog'liq xolda qaralgan va bunda inson shaxsiga bevosita va bilvosita aloqador omillarning bir qismi Tangri tomonidan berilishi, bir qismi esa har bir kishining axloqi, xatti — harakatidan kelib chiqishi ta'kidlanadi. Shu nuqtai nazar dan moddiy dunyodagi barcha xodisa, narsalar va xislatlar, avvalo, 5 qismga va ularning har biri yana 5 qismga — jami 25 qismga bulinib, har birining shaxs hayotidagi o'rni belgilangan. Jumladan:

- taqdir taqozosi bilan yuzaga keladigan;

- amaliy ishlar tufayli paydo bo‘ladigan;
- tabiat tomonidan xadya etiladigan;
- har kimning harakteriga bog‘liq bo‘lgan;

■ nasldan — naslga o‘tadigan xislatlar. Bulardagi diqqatga loyiq yana bir jixat shundaki, shaxs tarbiyasidek murakkab jarayonga ta’sir qiluvchi omillar, ularning musbat va manfiy jixatlari yaxlit xolda olib qaralgan va insonning o‘ziga va irodasiga bog‘liq xislatlar (amaliy ish, harakter va nasldan kelib chiqadigan) ustuvorligi ko‘zga tashlanadi. Bu xol har bir qismga xos sifatlar mohiyatida yanada ravshan ko‘rinadi:

- 1) taqdir taqozosi bilan yuzaga keladigan: umr ato etish, xotin, bola — chaqa, mansab va boylik;
- 2) amaliy faoliyat tufayli belgilanadigan maqom va xislatlar: koxin, jangchi, dexqon bo‘lish, ochiq ko‘ngillik, joxillik va x.k.;
- 3) tabiat tomonidan xadya etiladigan xislatlar: mexnat qilish, yeb — ichmoq, harakat qilmoq, uxlamoq;
- 4) har kimning harakteriga bog‘liq sifatlar: muxabbat, shon — sharaf, saxiylik, xaqqoniylik, kamtarlik;
- 5) irsiy xislatlar: inson jismi, go‘zallik, aql, xotira va kuch — quvvat .

Bunda azaliy va vujudiy xislatlar axloq mohiyatini belgilovchi mezon qilib olingan bo‘lsa ham, asosiy diqqat insonning yaratuvchilik salohiyatiga, o‘zini o‘zi anglash yo‘lidagi harakatiga qaratilgan. Shuning uchun taqdir xadya etgan umrni ezgulik yoxud yovuzlik bilan o‘tkazish insonning uziga bog‘liqligi alohida ta’kidlanadi. Bevosita insonni axloqan yuksaltiruvchi, ma’naviy poklovchi xislatlar qismlarning har biridan o‘rin olgani ham bejiz emas. Ayniqsa, ochiq ko‘ngillik, mexnatsevarlik, saxiylik, kamtarlik, guzallik, aql kabi estetik toifalari birinchi navbatda insonning amaliy faoliyati, harakteri va nasl aslligini saqlashi natijasi sifatida ifodalanishining uqdirilishi ham asoslidir.

"Avesto "dagi axloqiy saboqlarning bir qismi shohlar, vazirlar, umuman afsonaviy hamda tarixiy siymolar hayoti bilan bog‘liq voqealarga aloqadordir. Ularda taqdiri azalga tan bergan xolda, uni ezgu amal va xush axloq bilan bezashga, qiyinchiliklarni yengib, iroda va umidvorlik bilan aqlni charxlashga da’vat alohida burttirib tasvirlanadi. Bu jixatdan vazir Buzurgmehr bilan bog‘liq voqea ibratli bo‘lib, bu sayyor syujet sifatida yaqin

Sharqda keng tarqalgan va paxlaviy yozma yodgorliklaridan o‘rin olgan.

"Avesto"dagi axloqiy o‘g‘itlar tabiat va jamiyat, inson va hayot xaqidagi qadim qarashlarning muhim qismi bo‘lib, bunda ikki xususiyat ko‘zga tashlanadi:

- 1) tabiat va koinot xodisalarini insonga yaqinlashtirish orqali ezgu xislatlarni madx etish;
- 2) inson hayoti va yaratuvchilik faoliyatini iloxiylashtirish yo‘li bilan undagi oliyjanob fazilatlarni ulug‘ lash va yovuzlikni qoralash. Bu xususiyatlarning ifodasi rivoyat, afsona va pandnoma kabi asarlarning harakteriga kura odatda qissadan xissa yoki ta’limiy — axloqiy nasihatlar shaklida ifodalanadi. Ular da "Ashax — X, aqiqat odobi bilan sharaflangan zot saodatli ekani alohida ta’kidlanib, quyidagi da’vat yangraydi:

Sen bu xonumonda yorug‘lik bo‘l!

Sen bu xonumonda abadiy nur bo‘l!

Sen bu xonumonda munavvar bo‘l!

Uzoq— uzoq zamonlar to qiyomatga qadar poydor bul, sen abad — abad, to maxshar kuniga qadar ezgu va qudrat soxibi bo‘l" [19 — 90].

Bu o‘rinda diqqatga loyiq jixat shundaki, axloqiy saodatning muhim sharti sifatida bir xil ma’noli uch so‘z "yoruglik", "nur", "munavvar" kalimalariga o‘zgacha urg‘u berilgan. Bu tasodifiy bo‘lmay, balki zardushtiylik ta’limoti timsollaridan biri "otash"ning bevosita axloqqa aloqadorligiga ishoradir. Qiyomat kunigacha "poydor" va ezgu qudrat soxibi" bo‘lish nasihatida esa ezgulik va yovuzlik, axloq va jaxolat o‘rtasidagi kurashda sobitlikka chaqiriq aks etadi.

Yuksak axloqning bunday maqomlari, shuningdek, paxlaviy yozma yodgorliklarida hamda "Avesto "ning boshqa manba va sharhlarida ham ko‘p uchraydi.

Insonning ma’naviy kamolotida axloq maqomining bunday yuksak qadrlashi, shaxsiy — axloqiy o‘rnakka e’tiborning kuchayishi, inson irodasining yovuzlik va axloqsizlikka qarshi chiniqtirishga da’vat etilishi zardushtiylik ta’limotidagi donishmandlikning eng muhim jixatlaridan biridir. Binobarin, inson go‘zalligi tushunchasining bir qismi bo‘lgan axloq shaxsning jismoniy, ma’naviy barkamolligini tarbiyalashdagi asosiy me’yori hamdir. Bunda turli masalalar, xususan, odob — axloq xususida uzoq asrlar davomida turmush tajribalarining xulosasi sifatida shakllangan hikmatlar — aforizmlarning ham alohida o‘rni bor. Ular "Avesto"ning barcha qismlarida,

shuningdek "Zardusht pandlari" deb atalgan to'plamda voqealar bayoni davomida yoxud ustozlar nasihatlarini tarkibida uchraydi. Ularni mavzu jihatidan shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

- a) Yazdon ogohlik va bilim sarchashmasidir.
- b) Tangri — barcha ilm va xunarlar kaliti.
- v) Tangri norozi bandaga jannatda joy yo'q.
- g) Tangriga yaqin odam — yaxshi ustoz.
- a) Rost so'z sendan qoladigan eng qutlug yodgorlikdir.
- b) Yolg'on so'zga og'iz ochgandan baxt qushi qochadi.
- v) Yolg'onni yoddan chiqarish yo'li — qasos olishdan voz kechish.
- a) Vatanning tutuni ham shirin.
- b) Do'stlik rishtasi poklik bilan maxkam tutiladi.
- v) Pok niyatli kishilar do'stlik va to'g'rilik tarafdoridir.
- a) Qarilikka da'vo yo'q, o'limga chora yo'q.
- b) Bilim tengi yo'q boylik, boylik esa o'lchovsiz narsa.
- v) Aqli raso kishi baxtli va farovondir.
- g) Yaxshilar uyingga yo'l solishsa, izidan ezgulik ham keladi.
- d) Adashganni to'g'ri yo'lga boshlagan yaxshi odamdur.
- a) Baxtsizlar ichida eng ashaddiysi — gunohkor kishidir.
- b) Tog jilg'alaridan bittasini quritgan odam Tangri dushmanidir.
- v) Orqasidan g'am keladigan quvonch shodlik emas.

Xalq donishmandligi va pedagogik tafakkurining nodir durdonalariga aylangan ushbu hikmatlar asrlar osha kishilar shuurini yaxshi xulq, pok niyat va odamiylik kabi fazilatlar bilan ravshanlantirishga xizmat qilib kelmoqda.

Xalq donishmandligining ifodasi "Avesto" hikmatlarining ko'pchiligi allaqachon maqollarga aylanib ketgan va davrlar o'tishi bilan ularning turli variantlari vujudga kelgan.

Xalqimiz ma'naviy xazinasidagi ana shu bebaho durdonalarning bir qismi bo'lgan "Avesto"dagi hikmat va maqollar bugun ham "otalar so'zi" sifatida tabarruk va ibratlidir.

XULOSA

«Avesto» ta'limotiga ko'ra olam qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgan: jismoniy narsalarda yorug'lik va zulmat, tirik tabiatda hayot va o'lim, ma'naviy olamda ezgulik va yovuzlik, ijtimoiy hayotda adolatli qonunlar bilan qonunsizliklar o'rtasidagi kurashlarda o'z ifodasini topadi. Yorug'lik, ezgulik kuchlariga Axura Mazda boshchilik qilib, ezgulikni vujudga keltiraveradi, yovuzlik ruhi bo'lgan Axriman unga qarshi kurashib, odamlarni yomon ish va yo'llarga boshlayveradi. Imon-e'tiqodli odam albatta, ezgulik tarafida turadi. Bu kurashda yorug'likning zulmat, ezgulikning yomonlik ustidan g'alabasiga ishonch bildiriladi.

Axura Mazda odamlarni bir-birlari bilan murosa qilib yashashni odat qilishlari, g'arazgo'ylik, hasadgo'ylik, kalondimog'lik, shuhratparastlik, qonunsiz ishlardan o'zlarini tiyib yurish uchun intilishga chaqiradi. Bergan so'zning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiqda shartnomalarga amal qilish, qarzni vaqtida to'lash, aldamchilik va hiyonatdan holi bo'lish- imonlilik alomatlari ekanligi aytiladi. Imonli odam o'g'irlik va talonchilikdan, begonalarning molu-dunyasiga ko'z olaytirishdan, o'z-o'ziga xiyonat qilish, ya'ni o'z imoniga xilof ishlardan o'zini saqlay biladigan komil insondir. Tanalaringizga nisbatan qalbingiz haqida ko'proq qayg'uring, ya'ni avval ma'naviy dunyoingiz musaffo bo'lsa, moddiy turmushingiz ham mukammal bo'lib boraveradi, deyiladi «Avesto»da.

«Avesto» da mehnat nihoyatda ulug'lanadi. Mehnatni yaxshilik, moddiy noz-na'matlar manbai deb biladi. Inson saxovatli bo'lishi uchun avvalo mehnat qilishi, o'z qo'li bilan noz-ne'matlar yaratishi zarurligi uqtiriladi.

«Avesto»da: «Don ekkan kishi taqvodorlik urug'ini ekadi, u mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini olg'a suradi, imonni oziqlantirib turadi...», deyiladi. Bunga amal qilish o'n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng. Ekin ekish, mehnat qilish –erdagi yovuzlikni yo'qotishdir, deb qaraladi. «G'alla yerdan unib chiqqanda, -deyiladi «Avesto»da, devlar larzaga keladi, g'alla o'rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g'alla yanchib un qilinayotganda ular mahv bo'ladi...» deb mehnat ulug'lanadi.

Zardushtiylik axloqining asosini - ezgu fikr, ezgu soʻz va ezgu ishlar tashkil etadi.

-Ezgu fikr deganda yaqin kishilarga mehribonlik , muhtojlik va xavf- xatar ostida qolganda yordam berishga shaylik, kishilar baxt va saodati uchun faol kurashishga doim tayyor turish, hamma bilan ahil va totuv yashash va boshqalar tushuniladi.

-Yaxshi soʻzlar deganda esa vaʼdasiga rioya qilish , soʻzining ustidan chiqish, savdo-sotiq ishlarida halol boʻlishga, qarzini oʻz vaqtida toʻlash, oʻgʻirlik va talonchilik qilmaslik, buzuqlikdan oʻzini tiyish va hokazolar tushunilgan.

-Yaxshi ishlar deyilganda insonning oʻz hatti-harakatida yaxshi fikr va yaxshi soʻzlarda ilgari surilgan barcha ijobiy yoʻl- yoʻriqlarga ogʻishmay amal qilish nazarda tutiladi.

Zardushtiylik axloq-odobi hayvonlarga nisbatan ham beshavqat boʻlishni qatʼiyan man etadi. Hayvonlarni kaltaklash va qiynash- gunoh deb hisoblanadi. Kishilarni foydali hayvonlar haqida gʻamxoʻrlik qilishga, ularga oʻz vaqtida ovqat berib turishga, yirtqich hayvonlardan qoʻriqlashga daʼvat etadi.

«Avesto»da tozalik, poklikka alohida eʼtibor qaratilgan. Hovuzdan yuvilmagan, iflos koʻzada suv olgan kishi besh darra bilan jazolangan. Inson yashaydigan xonada yuvinish, poklanish qatʼiyan qoralangan. Naslning pokligi, tozaligiga ham alohida eʼtibor berilgan, qattiq nazorat qilingan, qarindosh-urugʻ, aka-ukaning quda-anda boʻlishi qoralangan.

Hozirgi meditsina fani aka-uka, yaqin qarindoshlar oʻrtasidagi qudachilik munosabatlari kelajak avlodning sogʻlom, toʻla-toʻkis boʻlib tugʻilishiga salbiy taʼsir koʻrsatishini toʻliq aniqlagan. Buni esa bizning ajdodlarimiz allaqachon aniqlaganlari hozirgi zamon kishisini lol qoldiradi. Qolaversa, yaqin kishilarning nikoh masalalarida maʼnaviy jihatlar ham borki, bunga inson qalbi yoʻl bermasligi kerak.

Zardushtiylik taʼlimoti Oʻrta Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud boʻlgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi eʼtiqodlarga nisbatan progressiv, monoteistik taʼlimotdir. U behuda qon toʻkuvchi qurbonliklar, harbiy toʻqnashuvlar , bosqinchilik urushlarini qoralab,

o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqkonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadi. Moddiy hayotni yaxshilashga urinishni yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblaydi.

Avesto zardushtiyliknig asosiy manbasi va muqaddas kitobi hisoblanadi. Avesto O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining islomgacha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlar, olam to'g'risidagi tasvvurlari, urf-odatlar, ma'naviy madaniyatini o'rganishda muhim va yagona manbadir. Uning tarkibidagi materiallar qariyb 2 ming yil davomida vujudga kelib, avlod-dan-avlodga og'zaki ravishda ko'chib borgan.

Insonnig jismoniy va ma'naviy pokligi zardushtiylik axloqining eng qadimiy talablaridandir. Oila va nikoh yaratuvchining talabiga mos kelganligi bois uni buzish ta'qiqlangan. Agarda oilada er yoki xotin axloqsizlik, ya'ni buzuqchilik gunohi sodir etsa, unday kishilar tayoq bilan jazolangan. Shu orqali oila mustahkamligi uchun kurashganlar.

Zardushtiylik ta'limotidan ko'rinib turibdiki, Sharqda qadimdan oila muqaddas hisoblangan. Uni mustahkamlab, darz ketishiga yo'l qo'ymaganlar. Zardushtiylikda qabristonlar aholi turar joyidan chetda, tepalik joyda bo'lishi kerakligi, u yerga mevali daraxt o'tqazish, o'stirish mumkin emasligi, archa, qayrag'och kabi mevasiz daraxt o'stirish kerakligi ta'kidlanadi.

«Avesto»da aholining ko'payishiga ham ahamiyat berilgan. Qasddan erga chiqmaydigan qiz qopga solinib, 50 darra urilgan. Qasddan uylanmagan yigitga ham 50 darra urilgan va beliga temir kamar bog'lab yurish buyurilgan.

Ko'rinadiki, O'rta Osiyoda keng tarqalgan qadimiy Zardushtiylikda oila va nikoh masalalari, inson muammosiga katta ahamiyat berilgan.

«Avesto»da qadimgi tabiblarning qasamyodi va tabobat ramzi Ilon va jom berilgan. Demak, tabib qasamyodi va ramzi Gippokratdan emas, balki bizdan boshlangan. Bu ham bizning ma'naviyatimiz qadimiyligini ko'rsatuvchi dalillardan biridir. «Avesto»da ma'rifatga, ilm va hunarni boshqalarga o'rgatish kerakligi ham uqtirilgan.

Xulosa qilib aytganda, «Avesto» asarida insonning barkamol bo'lib yetishishida ajdodlarimizning necha ming yillik ma'naviy merosi izlari o'z aksini topgan. Unda johillik, zo'ravonlik, tuhmat kabi yomon xislatlar qoralanadi. Sof ko'ngilli bo'lish, hiyonat qilmaslik, savdoda bir-birini aldamaslik, haqorat qilmaslik kabi ma'naviy xislatlar targ'ib etiladi.

«Avesto» asarida insonning barkamol bo'lib yetishishida uning so'zi, fikri hamda ishi bir bo'lishiga katta e'tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g'oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma'rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo'lgan desak, xato qilmagan bo'lamiz. Zero, unda insonning inson sifatida ma'naviy va moddiy kamol topishi uchun zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida nafaqat Sharq, balki G'arb xalqlarining ham muqaddas ma'naviy merosi bo'lib qoldi.

I.A.Karimov "O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmokdamiz" degan asarida biz o'zbek xalqi mansub bo'lgan xalqning tarixi g'oyat uzun, beqiyos, betakror ekanini ta'kidlab, bunday degan edilar; "Biz jahon maydonida kuni kecha paydo bo'lgan xalq emasmiz. Bizning millatimiz xalqimiz ko'xna Xorazm zaminida "Avesto" paydo bo'lgan zamonlardan buyon o'z hayoti, o'z madaniyati, o'z tarixi bilan yashab keladi"⁴⁴.

⁴⁴ Karimov I. A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmokdamiz.-T.: O'zbekiston, 1999

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T., 2014.
2. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. - T.: Sharq, 1998.
3. Karimov. I.A. O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurmoqdamiz.-T.: “O‘zbekiston”, 1999.
4. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchidir. -T., “O‘zbekiston”, 2000.
5. Karimov I.A. Vataniizning tinchlik va xavfsizligi o‘z kuch va qudratiizga, xalqimizning hajihatligi va bukilmaz irodasiga bog‘liq. -T., “O‘zbekiston”, 2004.
6. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadiiz - jamiyatni deokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir. -T., 2005.
7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -T., “Ma’naviyat”, 2008
8. Karimov I. A. "Avesto"ning 2700 yilligiga bag‘ishlab barpo etilgan yodgorlik majmuining ochilish marosimida so‘zlagan nutqi. "Xalq so‘zi", 2001. 6 noyabr. №226.
9. Karimov I.A. Biz doim tarixdan saboq chiqarib, tinchlikni qadrlab, g‘urur va iftixor bilan yashaydigan xalqmiz. -T., 2014
10. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir. -T., 2015
11. Abdullaev A., Inoganov F. Dinlararo muloqotning yangi davri.
12. A.Ibroximov, X Sultonov, N.Jo‘raev Vanan tuyg‘usi. -T.1996.
13. “Avesto” Asqar Mahkam tarjimasi.
14. «Avesto». Gohlar. Yasna. 51-hot. A.Mahkam tarjimasi. -T.: Sharq. 2001
15. Anorboev A. O‘zbekistonda ilk davlatchilik na uning o‘rganilish tarixidagi ba’zi bir muammolar // O‘zbekiston tarixi. –T., 2004.
16. Asqarov A. Sopollitepa. – T.: ”Fan”, 1973
17. Isxoqov M. Avesto, Yasht kitobi. - T.; Sharq, 2001.
18. Ishoqov M. “Avesto” jamiyatida Xorazm vohasi: shaharsozlik va davlatchilik negizlari // “Avesto” kitobi - tariximiz va ma’naviyatimizningn ilk yozma manbasi” mavzusidagi konferensiya maieriallari. –T., 2000.

19. Sagdullaev A .S. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. -T., “O‘qituvchi”, 2002.
20. Sagdullaev A.S, Usadbı drevney Baktrik. - T.: Fan, 1987
21. O‘zbek xalqining kelib chikishi; ilmiy-metodologik yondashuvlar, etnogenetik va etnik tarix, - T., 2004
22. O‘zbekiston mustaqillik odimlari . -T., 1995.
23. E.Xoliqov, O‘ Ubaydullaev va boshq. Milliy g‘oya faidan seminar mashg‘ulotlari o‘tkazish metodikasi. (uslubiy tavsiyalar) - T., 2010.
- Muhammadjon Imomnazarov. Ma’naviyatning rivojlanish tarixi. (*Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma*). – T., 2008.
24. M. Xadjieva O‘zbekistonda toleyrantlik jarayoni. -T., 2008.
25. Esokov M. Bronza davrida Qadimgi Baktriya va Marg‘iyona axolisining zoolatrik diniy qarashlari !! O‘zbekiston tarixi moddiy madaniyat va yozma manbalarda. - Toshkent-Samarkand: Fan, 2005.
26. Shaydullaev Sh. “Avesto” va moddiy madaniyat.

Davriy matbuot nashrlari

“Ma’naviy hayot”, “Tafakkur”, “Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari”, “Hayot va iqtisod”, «Inson huquqlari», “Guliston” jurnallari; «Halq so‘zi», «O‘zbekiston ovozi», «Ma’rifat», «Turkiston», «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati», “Fidokor” gazetalari mustaqillik davriy materiallari, 1993-2016 yillar.

Internet –elektron manbaalar

1. <http://www. Ziyonet.uz>
2. <http://wwg.unesco.orgg'generalg'engmaboutg'historyg'membersg'>
3. www.avesta.org.ru
4. <http://www. nauka.uz>